



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

Postda Ha nocty

2023-yil
23-noyabr
payshanba

№ 47 (4637)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

BU MENING UYIM, MAHALLAM, VATANIM

Poytaxtning Mirzo Ulug'bek tumanidagi Habib Abdullayev nomli mahallada mavjud 38 ta ko'p qavatli uylarda 4 ming 400 nafardan ortiq aholi istiqomat qiladi.

Tumandagi mas'ul rahbarlar, mahalla fuqarolar yig'ini raisi Nodir Nurulloyev, hokim yordamchisi Azizbek Ro'ziyev, yoshlar yetakchisi Samariddin Yusupov, xotin-qizlar faoli Zulfiya Abdunazarova, profilaktika inspektorlari hamda aholining hamjihatligi bois hududning manzarasi tubdan o'zgardi. Bunday ijobiy o'zgarishlarga hamohang tarzda mahallada huquqbuzarlik va jinoyatchilikning barvaqt oldini olish, tinchlik-osoyishtalikni ta'minlashda profilaktika inspektorlari – kapitan Jasur Alimov va leytenant Shohrux Mamadaliyevning sa'y-harakatlarini alohida ta'kidlash joiz.

Aholining mazmunli hordiq chiqarishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan bo'lib, otalar choyxonasi, amfiteatr, «Wi-Fi» hudud barpo etildi, ichki yo'llar va bolalar maydonchalari ta'mirlanib, ko'rkam holatga keltirildi. Bundan tashqari, ayni paytda mahalla guzari va ichki ishlar organlari tayanch punkti ham zamonaviy tarzda qayta bunyod etilayotgani quvonchli holdir.

Hududda tinchlik-osoyishtalikni ta'minlash maqsadida 31 ta zamonaviy kamera o'rnatilgan. Shundan 8 tasi «aqli kamera» hisoblanadi.

– Yaqinda Prezidentimiz mahallamizga tashrif buyurganlarida, uning yanada obod va ko'rkam bo'lishi uchun qimmatli tavsiyalarini berdilar, – deydi Safar ota Yusupov. – Davlatimiz rahbari energiyani tejash, xonadonlardagi issiqlikni asrash, har bir insonda bunga daxldorlikni shakllantirish zarurligini ta'kidlarkan, fuqarolarimiz «bu mening uyim, mening mahallam, mening tumanim, mening Vatanim» deb yashasa, natija biz kutgandek bo'ladi, dedilar.

O'z muxbirimiz.



BIZGA FIDOYILAR KERAK

yoki O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri Po'lat BOBOJONOVning mamlakatimiz aholisiga murojaati mutolaasidan keyingi o'ylar

Internet tarmoqlaridan joy olayotgan katta-kichik, hatto aqlbovar qilmas jinoyatlar tafsilotlariga ko'zing tushganda, yo tavba, odamlarga nima bo'lyapti o'zi, deya beixtiyor xo'rsinib qo'yasan kishi. Xo'rsinish ham gapmi? Kimningdir o'ta loqaydligi yoki shafqatsizligi tufayli mutlaqo gunohsiz bir odamning hayotdan erta ko'z yumganini ko'rganingda ich-ichingdan achinmay, kuymay bo'ladimi? Yo'q, bo'lmaydi! Halol mehnat qilib, oilasi bilan tinch-totuv yashab yurgan odam mashinasini uchirib kelayotgan mast bir kimsaning aybi bilan jon taslim etsa, rahmingiz kelmaydimi? Keladi! Xurmachasiga sig'magan haydovchini la'natlaysizmi? La'natlaysiz!

Har kuni ko'rib yurgan odamingiz o'g'irlikmi, gijohvandlikmi yoki firibgarlik bilan qamalsa, ishonib-ishonmay bosh chayqaysizmi? Chayqaysiz! «Tuppa-tuzuk ishlab yurgan bu odamni nima balo urdi birdan? — deya oila a'zolaringiz davrasida afsus bilan muhokama qilib: «Bilmayin bosdim tikonni, tortadurman jabrini» deganlari mana shu bo'ladi. U o'zigagina emas, ota-onasi-yu bola-chaqasiga ham jabr qilib ketdi», deysizmi? Deysiz! Xorijga savdo-sotiq qilgani ketgan xotini bilan telefonda janjallashib, bolalarining umriga zavol bo'lgan bemehr otadan nafratlanmaysizmi? Nafratlanasiz! Qattiq nafratlanasiz! «Menga falon million so'm topib berasan» bahonasida o'z otasining qotiliga aylangan o'g'ildan-chi?! To'g'ri, uni ham qarg'aysiz. Hammasidan ko'proq qarg'aysiz! Chunki, padarkush o'g'il har qanday qarg'ishga munosib. Aslida, bunday mal'unlar besh-olti yilga emas, umrbod qamoq jazosiga loyiq. Axir ota ota-da! Uni qiynab o'ldirish u yoqda tursin, hatto ko'zlariga tik qarash yoki qattiq gapirib, ko'nglini og'ritish ham gunohi azim. Xo'sh, bunday jinoyatlarni sodir etayotgan inson qiyofasidagi vahshiylar qayerdan paydo bo'lyapti? Yerdan chiqayptimi yoki osmondan tushayptimi? Unisidan ham emas, bunisidan ham. Ular yonimizdagi odamlar. Biri qo'shnimiz bo'lsa, biri mahalladoshimiz. Ular jinoyatchi bo'lib tug'ilganmidilar? Yo'q! Ular ota-ona, oila, maktab va mahallaning, achchiq bo'lsa-da aytish kerakki, barcha-barchamizning o'ta loqaydligimiz, eshitib eshitmaganlikka, ko'rib ko'rmaganlikka olishimiz, «sen menga tegma, men senga teg-

may»ning oqibatida paydo bo'lgan va bo'lyapti. Rostini aytganda, har bir oila ta'lim-tarbiyada beqiyos o'rin tutadigan «Bir bolaga yetti mahalla ham ota, ham ona» degan maqolga qat'iy amal qilganida, avvalambor, ota-onaning o'zi manmanlikka berilmas, «Mening bolamga tanbeh beradigan senmisan?» deya birovning yoqasiga yopishmas, aksincha, kamchilikni o'zi va farzandidan izlagan

biyasiga «demokrat»larcha qarashini yuzaga keltirayotganligi ham sir emas.

Uyimizning orqa tomonida qo'ni-qo'shnining gurunglashib o'tirishi uchun qurilgan zamonaviy ayvonchada ba'zan o'n to'rt-o'n besh yoshli o'quvchi yigit-qizlarning xoxlashib, chekib o'tirganlarini, ertalab ishga ketayotganimda xuddi shu yerda pivodan tortib spirtli ichimliklar idishlarigacha dumalab yotganini ko'rganimda ko'nglimdan ana shunday o'ylar kechmay qolmaydi. Shu yerdagi katta bir maktabning ikki qanotida «manaman» deb turgan aroq-vino do'konlari bilan esa hech kimning ishi yo'q. Bu poytaxtning qoq belidagi mahallaning bir burchida bo'layotgan gap. Vaholanki, bu yerda ham rais, uning o'rinbosari, bir emas, ikkita profilaktika inspektori bor. Agar ular zimmalaridagi vazifani sidqidildan bajarganlarida, faollar ko'rib-ko'rma-

ning birida «ta-a-k», deb qo'yadigan to'qson besh yoshli Yelena Konstantinovna turardi. Qachon qaramaylik, kampir ko'zoynaksiz kitob o'qib o'tirar, birinchi kundan bizni ham shunga da'vat etgan edi.

— Qanday kitobni o'qiyapsiz, yigit? — so'radi yonimga kelib o'tirgan kishi menga diqqat bilan tikilib.

— Abdulla Qahhorning «O'tmishdan ertaklar»ini, — dedim kitobning yuzini ko'rsatib.

— Ertak kitobmi?

— Yo'q, yozuvchining bolalikda ko'rgan-kechirganlari haqidagi qissa.

— Qiziqmikan?

— Judayam qiziq, — dedim kitobdan ko'z uzmay. — O'qimaganmisiz?

Suhbatdoshim «yo'q» degandek, sekingina bosh chayqab:

— Qaytarib berish sharti bilan sizdan keyin o'qisam bo'ladimi? — muloyimlik bilan so'radi u.

— Bemalol, — dedim tantilik qilib, kitob kutubxonaniki bo'lsa ham.

— Mening ismim Usmon, — dedi u kishi menga qo'l uzatib va kostyumi-ning yon cho'ntagidan qizil rangli guvohnoma chiqarib ko'rsatdi. — Familiyam Niyozov.

Men ham ismi-sharifimni aytdim.

— Shu yerda «uchastkavoy»man, — davom etdi Usmon aka. — Kabinetim yo'lining u tomonida, «apteka» joylashgan «dom»da. Ertalab soat o'ndan kechasi o'n ikki-birgacha shu yerdaman. Hatto shanba-yakshanba kunlari ham. Vaqtingiz bo'lganda chiqib turing, tortinmang! Darvoqe, qayerda o'qiysiz?

— Universitetda.

— Kim bo'lib chiqasiz u yerdan?

— Jurnalist!

— Zo'r kasb. Qo'shnim ham jurnalist. Rioda ishlaydi. Har zamon ovozi eshitganda yonimdagilarga bu mening qo'shnim deya g'urur bilan maqtanib qo'yaman. Ajoyib inson. Uning ham qo'lidan kitob tushmaydi. O'ziyam bilimdon yigit. Bekorga chiqib turing demagan ekanman-da. Yarim soat-bir soat men bilan kvartal aylansangiz, ming xil odamni ko'rasiz. Qiziq-qiziq gaplarni eshitasiz. Keyin ijod qilasiz. Durustmi?

— Durust, — dedim Usmon aka-ni ochiqko'ngilligidan xursand bo'lib.

— Unda sizni kutaman! — dedi u xayrlashish uchun qo'l uzatib.

Oradan ikki kun o'tib, «O'tmishdan ertaklar» bilan Usmon akaning oldiga bordim. Peshtoqida «Militsiya punkti» deb yozilgan jigarrang eshik ochiq turar, to'rdagi deraza oldiga qo'yilgan chog'roqqina stol ustida qora rangli telefon, bir chetda taxlab qo'yilgan daftarlar, ularning ustida militsiya shapkasi. Usmon aka nimadir yozib o'tirardi. Men hali eshikni chertib ulgurmay, «Kiring, kiravering», dedi kapitan formasi o'ziga yarashib turgan Usmon aka. Men o'zimni ichkari olib,



bo'lardi. Afsuski, aql bilan oqilona yo'l tutadigan ota-onalar tobora kamayib borayotganligini mahallada ham, ko'cha-ko'ya-da ham ko'rib turibmiz. Ayniqsa, ayrim shaharlik ota-onalar uchun pul topish, mol-dunyo orttirish, bashang kiyinish, g'o'ddayib mashina haydash, o'zlarini ko'z-ko'z qilish shiddat bilan hayotlarining mazmuniga aylanib borayotganligi, bu esa o'sha oilalarning farzand ta'lim-tar-

ganlikka olmaganlarida, men bunday tashvishli holatning shohidi bo'lib, uni sizga so'zlab o'tirarmidim?!

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining mamlakatimiz aholisiga murojaatini («Yangi O'zbekiston» gazetasining 2023-yil 15-sentabr, 188-soni) o'qib, o'tgan asrning yetmishinchi yillarida bugunning tili bilan aytganda, profilaktika inspektori bo'lib ishlagan Usmon aka Niyozov degan inson beixtiyor xayolim ko'z-gusida namoyon bo'ldi.

Yoshi ellikni qoralab qolgan bu odam baland bo'yli, bug'doyrang, qotma, oppoq sochi orqaga taralgan, chehrasidan nur yog'ilib turar, kulganda ikki donagina kumush tishi yaraqlab ko'rinar, quyib qo'ygandek o'qituvchiga o'xshardi.

Men universitet talabasi edim. O'qishdan qaytib, to'rt qavatli uyimiz yo'lagi oldida qo'yilgan skameykada xonadoshimni kutgancha, kitob mutolaa qilib o'tirardim. Tangadek o'tob tushmaydigan, qalin daraxtzorli bu joyga yaqindagina ko'chib kelgan ijarachi edik. Katakdek-katakdek keladigan ikki xonali kvartiraning birida biz, birida uy egasi — har ikki so'z-



salom berdim. Usmon aka o'rnidan turib ko'rishar ekan, kitobni ko'rib, suyunib ketdi. Bir piyola choy ustida ichki ishlar sohasida qachondan beri ishlayotgani, kasbining quvonch-tashvishlari-yu oilasi haqida gapirib berdi.

Men kapitan Usmon Niyozevning ishiga qiziqib qoldim. Ba'zan kech-qurun, ba'zan yakshanba kunduzi birgalashib, yetti mingga yaqin odam yashaydigan mavze ichiga sho'ng'ib ketamiz. Usmon aka juda sinchkov edi. Biron-bir narsani nigohidan o'tkazib yubormas, hududidagi yosh-u keksani yod bilar, yo'lda uchragan borki, salomlashib hol-ahvol so'rashar, qaysi uyda yashashidan tortib nima ish qilishigacha aytib berar, uni ham hamma tanir va hurmat qilardi. Tashqaridan kirganni darrov bilar, bu begona deb indamay ketavermas, «kimnidir izlayapsizmi?» yoki «adashib qolmadingizmi?» deb so'rardi muloyimlik bilan. Sayr qilib yurgan yoki biron bir joyda gurunglashib o'tirgan yoshlar undan o'zlarini olib qochmas, aksincha, o'rinlaridan turib salom berishardi. Usmon aka bu yoshlarni nomma-nom bilar, ayrimlarining ota-onalari bilan tez-tez gaplashib ham turardi. Oilada

vaqtimga achinmadim. Ozmi-ko'pmi mas'uliyat, tartib-intizom, odamlar bilan muomala qilish kabi bir qator insoniy xislatlarni o'zimga yuqtirishga intildim. O'ylab qaragam, manmanlikning ko'chasidan o'tmagan, kamtar, o'z ishini yaxshi ko'radigan, yuzma-yuz bo'lgan kishining, eng avvalo, ruhiyatini bilishga harakat qiladigan, halol va fidoyi bu inson ishini ikki yil kuzatmaganimda, hozir bu gaplarni yozib o'tirmagan bo'lardim. Yozishdan maqsad esa bitta – bu insonni hozirgi profilaktika inspektorlariga ibrat qilib ko'rsatish. Toki ularning ayrimlari o'zlarini eng avvalo inson sifatida tutishlarini, vazifalarini adolat va halollik talablariga tayanib qonuniy bajarishlarini, pogonlarini pesh qilib, «kimligingdan qat'i nazar mening aytganim bo'ladi» deyishdan tiyilishlarini, yolg'on ko'rsatma berishdan (boshqalarni ham bunga majbur qilishdan) hazar qilishlarini, ma'naviyatli va ma'rifatli bo'lishlarini, inson qadr-qimmatini toptamaslikni, muammolarni hal etishda ko'pni ko'rgan, tajribali, obro'-e'tiborli odamlar bilan maslahatlashib qaror qabul qilishni taklif tariqasida yana bir bor eslatib qo'yish, xolos.



yaqin mahallaning 1,5 mingdan ziyodida kriminogen vaziyat murakkabligicha qolayotgani»dan tashvishlanmay bo'lmaydi, albatta. Agar har bir mahallaning aholisi o'rtacha 1500 tani tashkil etsa, 1,5 mingta mahallada ikki million ikki yuz ellik ming kishi o'z mahallasidagi bunday ayanchli ahvoldan bezovta bo'lishi turgan gap. Bu nafaqat ichki ishlar organlari xodimlaridan, balki mahalla rahbarlaridan tortib uning faollarigacha hamjihatlik bilan ishlashni talab etadi. Afsuski, joylarda qing'ir yo'l bilan raislik kursisiga o'tirib olgan ayrim nopok kimsalarni manfaatdan boshqa narsa qiziqirtmasligini, qovun qovundan rang olar, deganlaridek, uning xotin-qizlar bilan ishlash bo'yicha o'rinbosari ham kun o'tsinga kirib-chiqib yurganini ko'rib, eshitib turibmiz. Buni mahalla ahli bilmaydimi? Profilaktika inspektorlari bilmaydimi? Hokim yordamchisi-chi? Hokimiyatdagilar-chi?! Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qilar deganlari shu emasmi?!

Qurt daraxtni bo'shini yeydi. Agar, mahallada birlik, ishonch, hamjihatlik, qat'iylik, adolat hukmron bo'lsa, undan biron-bir gap chiqishi mumkinmi? Yo'q, chiqmaydi! Demak, qaysi mahalla bunday mezonlardan mosuvo bo'lsa, unga «qurt» tushishi aniq. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tizimda ma'naviy-axloqiy masalalarga e'tibor tubdan o'zgarishi kutilayotganidan quvonmay bo'lmaydi.

Murojaatda ichki ishlar tizimi faoliyatini bugungi kun talablari darajasida tashkil etish maqsadida bir qator yangiliklar joriy etilishi, ayniqsa, «jinoyat sodir etgan yoki jinoyat qilishga moyil bo'lganlarga huquq-tartibot idoralari rahbarlari va rahbar o'rinbosarlari, ijtimoiy zararli xatti-harakat sodir etishi mumkin bo'lganlarga davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlari va rahbar o'rinbosarlari, nazoratsiz va qarovsiz qolganlarga hokimliklar, ta'lim muassasasi direktorlari va mahalla raislari birlashtiriladi», degan sa'y-harakatning amalga oshirilishi, birlashtirilgan rahbarlar zimmalariga yuklatilgan vazifani shaxsan o'zlar bajarishlari hamda qilingan ishning natijasi bo'yicha tegishli joyga axborot berib borishlari jinoyatlarni keskin kamaytiribgina qolmay, ularning ildizlarini tag-tubi bilan quritishga qodir ekanliklariga

ham aminmiz. Shuningdek, bundan buyon ham o'z kasbiga sodiq bo'lgan, el-yurt tinchligi yo'lida chin dildan halol xizmat qiladigan, o'z manfaatidan xalq va vatan manfaatini ustun qo'yadigan fidoyi kadrlarni tayyorlash va joy-joyiga qo'yish, ayni paytda sohani o'z foydasi uchun yelib-yuguradigan, o'zini o'zgalardan baland tutadigan, ma'naviy nochor va nopok shaxslardan tozalash vazirlik rahbariyatining diqqat markazida bo'lishi tizimda ishlayotgan har bir xodimni hushyor bo'lishga, o'z vazifasini vijdonan bajarishga, halol ishlashga, yurish-turishi, muomalasi-yu madaniyati bilan odamlarga ibrat bo'lishga undamay qolmaydi.

Murojaatning mazmun-mohiyatidan yaqqol ko'rinib turibdiki, ichki ishlar sohasida xizmat qilayotgan barcha rahbar va xodimlar zimmasiga juda katta mas'uliyatli vazifalar yuklangan. Maqsad esa bitta: har qanday jinoyatning oldini olish, har qanday jinoyatga barham berish. Har bir mahallada, har bir jamoada qonun ustuvorligiga erishish, fuqarolarning haq-huquqlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash... Bu, eng avvalo, profilaktika ishlarini kuchaytirishni, aholining huquqiy savodxonligini va huquqiy madaniyatini oshirishni taqozo etadi. Tadbirlar maqsadli va samarali bo'lmog'i kerak!

Qars ikki qo'ldan deganlaridek, bu ishlarda ichki ishlar organlari xodimlariga kamarbasta bo'lishni har bir fuqaro o'zining vatanparvarlik burchi, deb hisoblashi lozim. Bu esa loqaydlikdan butunlay qutulmoqni, vatanim va xalqim tinchligi — mening va oilam tinchligi, vatanim va xalqim manfaati — mening va oilam manfaati deb bilishni, shu ezgu maqsad uchun jonkuyar, tashabbuskor va fidoyi bo'lishni, kimligimizdan, qanday lavozimda ishlashimizdan, yoshimiz, millatimiz va e'tiqodimizdan qat'i nazar, barcha-barchamizni shunga da'vat etadi. Bu da'vatga labbay deb javob bermoq men O'zbekiston farzandiman degan har bir insonning qalb va vijdon amriga aylanishi lozimligini hayotning o'zi talab etmoqda.

Nuriddin OCHILOV,
O'zbekiston Milliy universitetining
jurnalistika fakulteti o'qituvchisi.
(«Hurriyat» gazetasining 2023-yil 8-noyabr sonidan olindi.)



biron-bir kelishmovchilik chiqqanda kattasidan kichigigacha kabinetiga chaqirar, aybdorning gunohini bo'y-niga qo'yib, uzr so'rattirar va ahil yashashga chaqirib, ruxsat berardi. Men bu odamning hozirgi ba'zi birovlariga o'xshab, biron bir fuqaroga do'q-po'pisa qilganini yoki oldiga solib, tuman Ichki ishlar bo'limiga olib ketganini ko'rmadim.

Usmon aka xuddi hamma narsaga javobgardek, hudud tozaligi-yu obodligiga ham qarar, biron-bir uy atrofiga axlat yoki qurigan shox-shabba ko'rguday bo'lsa, egasini topib oldirmaguncha tinchimasdi. Hududda qandaydir ilmiy-tadqiqot instituti, maktab, bolalar bog'chalari, sanatoriy va do'konlardan tashqari «Toshkent sovetining 50 yilligi» kinoteatri ham bo'lardi. Nozir meni ularning rahbarlari bilan tanishtirib, «bu yigit jurnalist, tanqidga uchramay desangizlar, qonun-qoidani buzmay ishlantlar» degan gapi egallayotgan kasbimning mas'uliyatli va obro'li ekanligini yanada teranroq anglashganingdan. Xullas, men militsiya kapitani Usmon Niyozev bilan tanishib, zarar ko'rmadim. U bilan o'tkazgan

Murojaatga qaytib, shuni aytishim mumkinki, men tilga olgan davr bilan bugungi kun o'rtasida yer bilan osmoncha farq bor. Bugungi odamlarning ongi ham, dunyoqarashi ham ellik yil burungilarga aslo o'xshamaydi. Bugungi ichki ishlar tizimi esa zamonaviy sharoit va texnik vositalar bilan ta'minlangan, jinoyatchilikning oldini olishda, sodir etilganlarining izini sovitmay, tez aniqlashda yangi usul va uslublar, shuningdek, xorijiy mamlakatlar bilan tajriba almashish va hamkorlikda ishlash imkoniga ega.

Murojaatning avvalida ta'kidlab o'tilganidek, «asosiy e'tiborni sodir etilgan jinoyat va huquqbuzarliklarni ilmiy yondashuv asosida o'rganish», har bir hududning o'ziga xos xususiyatini inobatga olgan holda «namunalı hudud metodikasini yaratish» maqsadida oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari bilan hamkorlik qilish ishning samarali bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugun ko'proq ijtimoiy muammolar bilan bog'liq jinoyatlar soni ortib borayotganligi, shu jumladan, mamlakatimizdagi «to'qqiz yarim mingga

YUKSAK MUKOFOT SOHIBLARI

VATAN FIDOYILARNI QADRLAYDI



Ichki ishlar organlari xodimlari kuni munosabati bilan mukofotlanganlar orasida Qo'rg'ontepa tumani IIB boshlig'i, podpolkovnik Bektomir Bahromov ham bor.



IIV Akademiyasini tamomlagan B. Bahromov Andijon viloyati IIB jinoyat qidiruv xizmatida faoliyatini boshladi. Tajribali tezkor xodim, kapitan Baxtiyor Ismoilov unga ustozlik qilib, o'z bilim va ko'nikmalari bilan o'rtoqlashdi, qiyin vaziyatlarda qanday harakat qilish lozimligini o'rgatdi. Oradan bir necha yil o'tib, Bektomir Bahromovning o'zi ham tajribali xodimga aylandi va bo'linmaga boshliq etib tayinlandi.

– 2009-yilda viloyat bo'ylab masjidlarda bir

qator o'g'irlik holatlari qayd etildi, – xotirlaydi lavhamiz qahramoni. – Bir guruh jinoyatchilar kechasi masjidlarga kirib, xayriya qutilari va gilamlarni o'g'irlab ketishardi.

U paytlarda hali videokuzatuv kameralari yo'q edi va eski cha uslubda ishlashimizga to'g'ri kelar: jinoyatga guvoh bo'lishi mumkin bo'lgan o'nlab odamlarni so'roq qilardik. Tezkor tadbirlar

davomida viloyat markazidagi Eski shahar hududida joylashgan bozorda o'g'rilar gilam sotayotgani haqida xabar oldik. Biz pistirmada turib, ularning yana bozorga kelishini kutib turdik va jinoyatchilar ko'ringan zahoti

ularni qo'lga oldik. Jinoiy guruh a'zolari bo'lmish uch nafar yigit masjidlardan biriga juma namoziga kelib, binolarga qanday kirish mumkinligini, qochish yo'llarini ko'z bilan chamalab olishgan va keyinroq mash'um niyatlarini amalga oshirishgan. Bu yoshlar ishtirokida sodir etilgan 12 ta jinoiy faoliyat epizodlari aniqlandi va ularga nisbatan munosib jazo tayinlandi.

B. Bahromov Qo'rg'ontepa tumani Ichki ishlar bo'limi boshlig'i sifatida qariyb 2 yildan buyon faoliyat olib bormoqda.

Uning podpolkovniklar Azamat Ibrohimov, Shohruh Sadriddinov, Jasurbek Xudoyberdiyev, mayorlar Qahramon Rahimov va Islombek Sobirov kabi bir qator shogirdlari fidokorona xizmat qilishmoqda.

– O'zbekiston fuqarolarining ilhom baxsh etuvchi va yaratuvchi faoliyati tufayli Vatanimiz kundan-kunga

gullab-yashnamoqda, – deydi «Sodiq xizmatlari uchun» medali sohibi podpolkovnik B. Bahromov, – Davlatimiz rahbari rahnamoligida mamlakatimizda ulkan ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar, industrallashtirish va sanoat salohiyatini oshirish borasidagi yirik loyihalar muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarilmoqda.

Poytaxt va viloyatlarda import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi zamonaviy korxonalar ishga tushirilib, transport-kommunikatsiya infratuzilmasi ob'yektlari va uy-joylar foydalanishga topshirilmoqda. Turmush sharoiti Vatanimizning eng chekka go'shalarigacha tubdan o'zgarib borayotgani mamlakatimiz taraqqiyotning yangi cho'qqilar sari ishonch bilan odimlayotganidan dalolat beradi.

Boris KLEYMAN,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.

Pastdarg'om tumani IIB 2-sonli ichki ishlar bo'linmasi boshlig'i, podpolkovnik Abbas Eshpo'latov kasb bayrami arafasida «Shuhrat» medali bilan taqdirlandi.

Bugungi kunda Abbas Eshpo'latov boshqarayotgan bo'linmada 20 dan ziyod xodim xizmat qiladi, shundan 18 nafari profilaktika inspektori. Bo'linma xodimlari 88 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladigan 18 ta mahallaga xizmat ko'rsatadi. Hududda jamoat xavfsizligi va huquq-tartibotni ta'minlashda xodimlar o'rtasidagi ahillik va o'zaro bir-birini qo'llab-quvvatlash singari insoniy fazilatlarini alohida ta'kidlash joiz. Ular birgalikda jinoyatchilikni 30 foizga kamaytirishga muvaffaq bo'lishdi.

Podpolkovnik Abbas Eshpo'latov so'zlariga ko'ra, kriminogen vaziyatning yaxshilanishi butun shaxsiy tarkibning mashaqqatli va samarali mehnati natijasidir.

E'tiborli jihati shundaki, bo'linma bilan boshqa sohaviy xizmatlar o'rtasida o'zaro hamkorlik tashkil etilgan. Mahalliy hokimiyat organlari bilan ham yaqin hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Bu, o'z navbatida, bo'linma xodimlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarni to'liq ado etish imkonini bermoqda.



– Oilaviy-maishiy munosabatlar, o'smirlar o'rtasidagi jinoyatchilik, giyohvandlik vositalari tarqalishining oldini olish, yo'l-transport xavfsizligini ta'minlash, ishlab chiqarish va xususiy sektorda korrupsiya va o'g'irlik holatlariga qarshi kurashish hali ham katta e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar sirasiga kiradi, – deydi qahramonimiz.

Ishda asosiy e'tibor huquqbuzarliklar va jinoyatlarning barvaqt oldini olishga qaratiladi. Jinoyatlarni fosh etishda umumiy ijobiy dinamika qaramay, oldimizda turgan vazifalarni yanada aniq tushungan holda, belgilangan maqsadlarni



amalga oshirish, barcha ehtimoliy noqonuniy ko'rinishlarning oldini olish va qonun ustuvorligini mustahkamlashga harakat qilishimiz kerak. Zero, bosh maqsadimiz – insonlar o'z hayoti va mulki uchun xavotir

olmay, ham uyda, ham ko'chada o'zini xotirjam his qilishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarimizni ishga solishdan iborat.

Zamira BOLTAYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING 42-MODDASI.



Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek, ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalash huquqiga ega.

Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta'minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi. Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi.



Награжденные Родиной

«ОЦЕНЕН ТРУД НАШЕЙ СЛУЖБЫ»

«Опытный руководитель, высококвалифицированный специалист», – так отзываются коллеги о заместителе начальника ГЭК МВД Республики Узбекистан подполковнике Алексее Рюмине.

За плечами героя очерка стаж службы в правоохранительных органах без малого 21 год. Профессиональный путь А. Рюмин начал в экспертно-криминалистическом центре, где и служит по сегодняшний день.

Целеустремленностью и оптимизмом Алексей Александрович подает прекрасный пример, как нужно идти по дороге жизни.

В плане работы, наряду с трудолюбием и ответственностью, он педантичен, инициативен и энергичен, стремится всегда добиваться поставленных целей.

– Задача сотрудников центра – обеспечить доказательную базу при расследовании преступлений, – рассказывает подполковник А. Рюмин. – У нас сложил-

ся высокопрофессиональный коллектив. Благодаря сплоченности добиваемся отличных результатов. Сотрудники в основном молодые и перспективные. Все четко выполняют поставленные задачи. Люблю свою службу и подразделение, в котором прошел ступени от лейтенанта до подполковника.

Большая роль подполковника А. Рюмина в развитии международного сотрудничества ГЭК. Благодаря этому обеспечивается использование в исследованиях международно признанных научно-технических подходов и методов. В канун празднования 25 октября – Дня сотрудников органов внутренних дел А. Рюмин был награ-

жден медалью «Шухрат». По большому счету, он именно из тех неутомимых и надежных сотрудников ведомства, для которых призвание определяет и образ жизни, и судьбу.

– Недостаточно быть просто руководителем, важно быть человечным, – эти слова героя очерка прекрасно характеризуют его личность.

В завершение нашей беседы А. Рюмин выразил слова благодарности руководству страны и МВД Республики Узбекистан. По его мнению, награда – заслуга всего коллектива, который добросовестно выполняет поставленные задачи.

Азиза БОХОДИРОВА,
капитан.



Женщины в погонах

СТРОГАЯ ФОРМА, ОБАЯТЕЛЬНАЯ УЛЫБКА

Это не просто тонкости профессии сотрудников туристической полиции, но и привычный образ жизни женщины в погонах, чей ежедневный труд связан с общением и оказанием помощи иностранцам и местным любителям путешествий. В числе тех, кто выбрал для себя эту стезю, лейтенант Шарифа Турсунпулатова.

Родилась Шарифа в Пастдаргомском районе. Она рано лишилась отца. Воспитанием единственной дочери занималась мать – преподавательница английского языка общеобразовательной школы № 21 района.

После окончания школы Шарифа Турсунпулатова поступила в Самаркандский государственный институт иностранных языков на факультет английской филологии. Получив диплом, с

2016 года работала учителем в той же школе, где преподавала мама.

– Не думала, что когда-то свяжу жизнь со службой в органах внутренних дел, – говорит лейтенант. – Хотя в юности любила смотреть фильмы и сериалы с расследованиями, читать детективы. Проработав пять лет учителем в школе, решила подать документы в Управление обеспечения безопасного

туризма УВД. Мама поддержала мое решение. Успешно пройдя отбор, в 2021 году приступила к службе.

Вот уже два года Шарифа обеспечивает безопасность и оказывает помощь туристам и местным жителям.

– Часто иностранцы и граждане, приезжающие из других городов нашей страны, спрашивают, как проехать до того или иного места, достопримечательности, – продолжает диалог Шарифа. – В практике нередки случаи, когда гости оставляют технику или теряют личные вещи.

Сотрудница турполицей призналась, что любит свою работу, она доставляет ей массу положительных эмоций.

– Большое счастье, когда, несмотря на все трудности, с удовольствием спешишь на службу, планируешь, пытаешься сделать максимум из намеченного, а после тяжелого дня с радостью возвращаешься домой к семье, – признается наша собеседница. – Важно иметь поддержку со стороны близких людей. У меня они есть – это моя семья: муж и шестилетняя дочурка, Фарзона. Если бы не они, вряд ли бы смогла добиться всего того, чего достигла сейчас.

Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.

Самаркандская область.



На снимке: (слева направо) старший лейтенант Гуландон Салимова, лейтенант Шарифа Турсунпулатова, старший сержант Нозима Эгамбердиева, старший сержант Руфина Валиева.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz

★ Ветераны — в строю

МУЖЕСТВО И ДОБЛЕСТЬ

Достойный вклад в сохранение и преумножение славных традиций войск и правоохранительных органов вносят ветераны.

За плечами генерал-майора в отставке Хабибулло Рашидовича Хаджиматова почти четыре десятилетия самоотверженной службы во имя обеспечения мирной жизни и общественной безопасности.

Родился Х. Хаджиматов 23 ноября 1953 года в городе Ош Кыргызстана. В 1970 году окончил школу № 18 в Маргилане. Выбирая профессию, руководствовался искренним желанием стоять на страже мира — поступил в Рязанское высшее воздушно-десантное командное училище.

После окончания училища молодой офицер был направлен в 345-й десантный полк Министерства обороны бывшего Союза, назначен командиром взвода. В ноябре 1979 года в составе полка Х. Хаджиматов отбыл в Афганистан, где, проявляя высокий уровень боевой подготовки и воинскую доблесть, служил до 1982

года. Очередной длительной командировкой стала служба в 1986–1988 годах в Республике Мозамбик.

В 1989 году было принято решение о переводе Х. Хаджиматова в Узбекистан. Он продолжил службу в Фергане в составе отдельной оперативной бригады Внутренних войск МВД. В 1990 году ему поручают возглавить отдельный оперативный батальон в Намангане, а в 1992 году — отдельный батальон специального назначения «Барс».

В 1993 году Х. Хаджиматова назначают командующим Внутренними войсками МВД Узбекистана.

— В этот период созданы и укомплектованы три новые войсковые части с соответствующей инфраструктурой. В центре внимания были вопросы укрепления материально-технической базы войск, их оснащения современной вооружением и техникой. В целях воспитания молодого поколения воен-

нослужащих развивали институт наставничества, — вспоминает ветеран. — На фоне обострения оперативной обстановки актуализировалась задача противостояния деструктивным силам. На системной основе проводили совместные с Минобороны, пограничными войсками учения. Личный состав выполнял задачи по противодействию диверсионным группам. Служили сплоченно. Нас объединяла цель: во что бы то ни стало укрепить законность и правопорядок в обществе.

За годы службы Х. Хаджиматов зарекомендовал себя как руководитель, обладающий глубокими знаниями, умением оперативно принимать верные управленческие решения. 11 января 1996 года Указом главы государства ему присвоено звание генерал-майора.

В 1999 году Хабибулло Рашидович был назначен заместителем началь-



ника Академии МВД Узбекистана. В период с 2004 по 2007 год он возглавлял кафедру общевоинских дисциплин. Под его руководством был реконструирован учебный центр Академии, расположенный в Ташкентской области, проведена большая работа по укреплению кадрового состава строевых подразделений и кафедры образовательного учреждения. В работе с курсантами и слушателями особое внимание уделялось военно-патриотическому воспитанию.

...В октябре 2007 года Хабибулло Рашидович вышел в отставку. Но сидеть без дела — не в его характере. Он не изменяет своим принципам и остается в строю. Ведет общественную работу, в том числе в Совете ветеранов МВД Узбекистана. Встречи с сотрудниками, военнослужащими, курсантами проходят с его активным участием. Опыт и знания ветерана — ничем не заменишь, ими он щедро делится, укрепляя живую связь поколений.

Радик ТУМΠΑРОВ,
соб. корр.

■ Республика Каракалпакстан

НЕ СТАТЬ ЖЕРТВОЙ ОБМАНА

Красота, милосердие, доброта во все времена ассоциировались с представительницами прекрасной половины общества. Связать образ хранительниц домашнего очага, заботливых мам, умелых хозяек с чем-то отрицательным, тем более с криминалом, кажется, противоречит даже законам природы. Однако...



Действительность куда более прозаична. В жизни немало примеров, когда женщинами совершаются противоправные действия. За минувшие десять месяцев в городе Нукусе зафиксированы 62 случая мошенничества, совершенные женщинами.

Жительница Нукуса, С. Ш., 1992 года рождения, нигде не работа-

ла, но искусно выдавала себя за сотрудницу городского хокимията. Убедив в этом С. Т., 1990 года рождения, пообещала ей посодействовать в назначении социального пособия, затем в устройстве на высокооплачиваемую работу. Естественно, за определенное вознаграждение. Ничего не подозревавшая жертва на-

скребла шесть миллионов сумов, которые затребовала мошенница. Взяв деньги, женщина попросту скрылась.

Гражданка Р. Р. также пустила в ход обман. На одной из встреч со своей знакомой, Д. Т., посетовала ей на недостаток оборотных средств для развития торговли в собственном магазине. Уго-

ворила ее оформить кредит на 25 миллионов сумов на свое имя, пообещав все вернуть с хорошими процентами. Но когда пришло время возвращать средства, женщина под разными предлогами уклонялась от выплаты долга.

Преступившие закон мошенницы понесли заслуженное наказание. Однако и жертвы небезупречны. Помимо излишней доверчивости, ими двигало желание обойти установленный порядок и нажиться.

На эти и другие вопросы обращаем внимание граждан во время встреч и профилактических бесед. Нажитые многолетним трудом средства не следует доверять сомнительным лицам, обещающим решить какие-то проблемы, тщательно проверять документы при оформлении недвижимости или иного имущества, хранить в тайне данные пластиковых карт и т.д.

В свою очередь, органы правопорядка всегда готовы прийти на помощь попавшим в беду гражданам.

Айжамал НАМЕНОВА,
подполковник.



INSON QADRI UCHUN

MAS'ULLARDAN MINNATDORMIZ

– deydi Dehqonobod tumani fuqarolari

Dehqonobod tumani 3-sektori hududida 14 ta qishloq va mahalla fuqarolar yig'ini mavjud. Mazkur qishloq va mahallarda 35 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi.

Tuman IIB boshlig'i, podpolkovnik G'ayrat Haydarov tomonidan sektor hududida reja asosida sayyor qabullar o'tkazilib, aholi ko'tarayotgan muammolarni hal qilish choralari ko'rilayotir. Chunonchi, joriy yilning o'tgan davrida hududda 13 kilometr uzunlikda ichimlik suvi tarmoqlari tortilib, 3 ta suv inshooti barpo etildi. Elektr ta'minotini yaxshilash maqsadida



52 ta ustun va 4 ta transformator o'rnatildi, 11 kilometr uzunlikdagi tarmoqlar yangilandi.

– Sektor rahbarining sayyor qabulida ikkita ko'chamiz qishda loy, yozda chang bo'lishidan aholi, ayniqsa, o'quvchilar qiynalayotganini bildirgandik, – deydi «Boyqo'rg'on» mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi Asliddin Rahmatov. – Ikki kun o'tgach, salkam 7 kilometrlik ko'chamiz tekislanib, shag'al yotqizish ishlari boshlandi. 21 ta ustun o'rnatilib, qoplamali elektr tarmoqlari tortildi. Yana yangi transformator o'rnatishmoqchi. Bular uchun sektor rahbaridan, shu ishga bosh qo'shgan barcha mas'ullardan minnatdormiz.

Sektor ishchi guruhi «mahalla-bay», «xonadonbay» ishlash as-

nosida muayyan oila va shaxslarning ijtimoiy-moddiy muammolarini aniqlab, hal qilish choralari ko'rmoqda. Bu jarayonda asosiy e'tibor investisiya jalb qilish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, imtiyozli kreditlar va subsidiyalar ajratish yo'li bilan fuqarolar bandligini ta'minlashga qaratilmoqda.

– Bu yil uchinchi sektorda 3 ta investisiya loyihasi hayotga tatbiq etilib, 16 kishi ish o'rniga ega bo'ldi, – deydi sektor kotibi, mayor Samariddin Bekkamov. – Bundan tashqari, 109 nafar fuqaro kasb-hunarga o'qitildi, 63 kishiga subsidiya ajratildi, 347 nafariga kam foizli kredit berilishida ko'maklashildi.

Shuningdek, ehtiyojmandlarga 42 ta tikuv mashinasi, 39 ta payvandlash va avtomobil yuvish uskunasi, 64 ta elektr pech ajratildi, 6 ta issiqxona qurib berildi.

«Inson qadri uchun» shiori asosida olib borilayotgan

xayrli ishlarda kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash alohida o'rin tutmoqda. Masalan, «Ayollar daftari»da turuvchi boquvchisini yo'qotgan fuqaro Mavjuda Bolliyevaning uyi tomi shiferlandi, eshik va deraza romlari yangilandi. Bunday g'amxo'rlikdan fuqaroning boshi osmonga yetdi.

Sektorda ko'makka muhtoj fuqarolarning tibbiy xizmatga oid ehtiyojlarini qondirish choralari ham ko'rilyapti. Xususan, sayyor qabullarda bildirilgan murojaatlar asosida bu yil 97 kishining davolanish xarajatlari to'lab berilib, 128 nafar bemorga tibbiy xizmat ko'rsatildi.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

XIZMATLARDA

TO'G'RI YO'LDAN
ADASHMASIN AYOLLAR

Ayollar orasida bilib-bilmay jinoyat ko'chasiga kirib qolgan opa-singillarimizning uchrab turishi achinarli hol, albatta. Davlatimiz tomonidan insonparvarlik tamoyillari asosida ularni sog'lom turmush tarziga qaytarish, ish bilan ta'minlash singari masalalar doimiy e'tiborda.



Raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, probatsiya xizmatining quyi tizimlarida joriy yilning o'n oyida 8371 nafar ayol probatsiya hisobida bo'lib, jazoni



ijro etish muassasalaridan ozod etilganlari 578 nafarni tashkil etdi. Ularga ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash maqsadida probatsiya bo'linmalari tomonidan ijtimoiy ko'nikma markazlaridan bir martalik moddiy yordam olishiga ko'maklashildi.

Nazoratdagi ayollarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish, bandligini va kasbiy ta'lim

olishini ta'minlash, shuningdek, ular tomonidan takroriy jinoyatlar sodir etilishining oldini olish maqsadida profilaktik suhbatlar o'tkazilayotgani besamar ketmayotir.

Probatsiya hisobidagi ayollarning ahvolini yaxshilash maqsadida ularning uylariga borilib, aniqlangan muammolarni bartaraf etish borasida bir qancha ishlar

amalga oshirildi. Jumladan, 26 nafar ayol kasb-hunarga o'qitildi, mahalliy hokimliklar va homiyar tomonidan 23 nafar ayolning uy-joyi ta'mirlab berildi.

Shu o'rinda tuman hokimliklari, aholi bandligiga ko'maklashish markazlari va boshqa hamkor tashkilotlar bilan olib borilayotgan ishlar o'z samarasini berayotganini alohida ta'kidlash lozim. Hamkorlikdagi sa'y-harakatlar natijasida hududiy mehnat va bandlikni ta'minlash bo'limlariga



yo'llanmalar berilib, probatsiya nazoratidagi 1802 nafar xotin-qiz ishga joylashtirildi, 4327 nafarining o'zini o'zi band qilishi ta'minlandi. Shu bilan birga, 163 nafar ayol tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, sog'lig'ida muammosi borligi aniqlangan 24 nafari tibbiy muassasalarga davolanish uchun joylashtirildi.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, ayol, avval, oila bekasi, xonadon charog'boni. Shu bois adashgan opa-singillari-mizning hayotda o'z o'rnini topishlariga ko'maklashish faoliyatimizning asosi bo'lib qoladi.

Ruxsora HAMIDOVA,
IIV JXD Probatsiya xizmati katta inspektori, kapitan.



UNING MAHALLASI «YASHIL» TOIFADA

Mirzacho'l tumanidagi 4473 kishi istiqomat qiladigan «Do'stlik» mahallasida joriy yilning o'tgan davrida birorta ham jinoyat ro'y bermadi. Bu ko'rsatkich zahirida hudud profilaktika inspektori, katta leytenant Jamshid Shodmonovning huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish hamda jamoat tartibini saqlash borasidagi samarali faoliyati mujassam, desak, xato bo'lmaydi.

Ayni maqsadda u «mahalla to'rtligi»ga 71 ta xulosa kiritdi. Shuningdek, sodir etilgan huquqbuzarliklar bo'yicha 88 ta ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirdi. Ma'muriy nazorat ostidagi shaxslar va oilaviy janjalkashlar bilan profilaktik tadbirlarni muntazam amalga oshirmoqda. Qolaversa, mahalla faollari bilan birgalikda tungi navbatchilikni yo'lga qo'ygan.

Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.



▶ YO'L, HAYDOVCHI, PIYODA

TARG'IBOT TADBIRLARI

HARAKAT ISHTIROKCHILARI MADANIYATINI OSHIRISHGA XIZMAT QILADI

2023-yilning 1-noyabridan 1-dekabr kuniga qadar Farg'ona viloyati hududida «Yo'l harakati ishtirokchilarining madaniyati» oyligi o'tkazilmoqda. Xo'sh, bu tadbirdan ko'zlangan asosiy maqsad nima? Oylik doirasida nimalarga e'tibor qaratilmoqda?

– Oylikni o'tkazishdan maqsad yo'llardagi barcha harakat ishtirokchilarining madaniyatini yanada oshirishdan iborat, – deydi viloyat IIB JXX Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi Axborot xizmati rahbari, kapitan Elbek Qobilov. – Shu maqsadda shahar va tuman markazlarida, gavjum joylarda, bozorlar, korxona va tashkilotlarda, mahallalarda, ta'lim maskanlarida, serqatnov yo'llarda turli ko'rinishdagi targ'ibot tadbirlari o'tkazilyapti. Har bir inspektor xizmat jarayonida yo'llarda qoida buzgan piyodalar bilan gaplashib, yo'l harakati qoidalariga amal qilmaslik holatlarning oqibatlarini atroflicha, aniq misollar bilan tushuntirmoqda.

Sohaviy xizmat vakilining ta'kidlashicha, haydovchilik madaniyatini oshirishga qaratilgan tadbirlar bevosita mahallalar kesimida amalga oshirilayotgani ham e'tiborga molik. Xodimlar yo'l-transport hodisalari ko'p qayd etilgan mahallalarga borib, keng jamoatchilik ishtirokida davra suhbatlari o'tkazishmoqda. Masalan, Quva tumanidagi «Turk» va «Bo'ston», Quvasoy shahridagi «Mo'yan», Uchko'prik tumanidagi «Qirg'iz qishloq», Buvayda tumanidagi «Yangiqo'rg'on» hamda Rish-ton tumandagi «Oq yer» MFYlari katta va serqatnov yo'l yoqalarida joylashgan. Ushbu mahallalar aholisi ishtirokida huquqiy targ'ibot tadbirlari o'tkazilib, aholiga serqatnov yo'llarda harakatlanish qoidalarini tushuntirildi.

Ana shunday targ'ibot tadbirlari 20 ming nafardan ziyod talaba tahsil

olayotgan Farg'ona davlat universiteti hamda Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Farg'ona filialida ham o'tkazilib, yoshlarga yo'l harakati qoidalarini bo'yicha eslatma bukletlar tarqatildi. Ushbu oliy o'quv yurtlari o'quv binolari va talabalar turarjoylari shaharning eng serqatnov ko'chalarida joylashganligi inobatga olinib, piyoda va transportda harakatlangan vaqtda nimalarga e'tibor berish kerakligi tushuntirildi.

Umuman olganda, tadbir boshidan buyon maktablar va mahallalarda 753 marotaba profilaktik tadbirlar o'tkazildi.

Bundan tashqari, haydovchilarni hushyorlikka chorlash maqsadida yo'l-transport hodisalari natijasida pachoqlangan avtomobillarni namoyish qiluvchi targ'ibot avtokarvoni o'tkazilayotgani ham



yo'l bermagan haydovchilar hamda yo'lning belgilanmagan joyidan kesib o'tayotgan piyodalar aniqlanib, ularga nisbatan qonuniy choralar ko'rilmoqda. Jumladan, yo'lning belgilanmagan qismini kesib o'tib, transportlar harakati va o'zining hayotiga jiddiy xavf solgan 1815 nafar piyodaga nisbatan ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirildi. Qo'pol qoidabuzarliklarni sodir etgan 858 nafar haydovchining avtomashinalari vaqtincha saqlash uchun jarima maydoniga olib kiritildi.

Oylik doirasida ko'p yillar aynan shu sohada ishlab, yo'l-transport hodisalarining oldini olishda boy amaliy tajriba to'plagan faxriylar boshqarmaga taklif etildi va maslahat kengashi tuzildi. Kengash a'zolari ishtirokida o'tkazilgan dastlabki yig'ilishda avtohalokat o'choqlarini aniqlash hamda yo'llarda sodir etilayotgan og'ir oqibatli, o'lim bilan bog'liq yo'l-transport hodisalarining oldini olish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

– Faxriylarning yordami, maslahat va o'g'itlari yosh xodimlarga faqat foyda beradi, – deydi viloyat IIB YHXB boshlig'ining maslahatchisi hamda Faxriylar kengashi raisi, iste'fodagi podpolkovnik Abduvohob Mirzaqulov. – Boshqarma rahbariyati bilan kelishgan holda faxriylarni xodimlarga murabbiy sifatida birlashtirishga, tez-tez maslahat uchrashuvlarini tashkil etishga kelishib oldik.

Bu kabi chora-tadbirlar, o'tkazilayotgan «Yo'l harakati ishtirokchilarining madaniyati» oyligi o'zining ijobiy natijasini berishi shubhasiz.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

profilaktik ishlar ta'sirchanligini yanada oshiryapti. Xuddi shunday avtokarvonlar Marg'ilon va Quvasoy shaharlarida, So'x, Bag'dod, Qo'shtepa, Quva, O'zbekiston, Furqat va Rishton tumanlarida 15 marta o'tkazildi.

Yo'l harakati ishtirokchilarining madaniyatini oshirishga xizmat qiladigan maxsus videoroliklar tayyorlanib, ommaviy axborot vositalarida, shuningdek, shahar-tuman markazlariga o'rnatilgan LED monitorlarida namoyish etilyapti.

Targ'ibot ishlari bilan birga, yo'l harakati qoidalariga amal qilmagan, jumladan, yo'l belgilari, svetofor ishoralariga bo'ysunmagan, xavfsizlik kamarini taqmagani, piyodalarga



PATRUL SHAHAR KEZADI

HUDUD TINCH EKAN, FUQAROLAR XOTIRJAM

Tonggi soat taxminan 5:00 lar edi. Mirobod tumani hududida-gi kafelarning birida janjal bo'layotganligi haqida tuman IIOFMB navbatchilik qismiga xabar tushadi. Tungi xizmatga birlashtirilgan JTSB PPX otryadi xodimlari – safdorlar Baxtiyor Isroilov va Ulug'bek Kaldarov tezda voqea joyiga yo'naltiriladi.

Xodimlar kelib chiqqan nizoni bartaraf qilib, sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatning oldini olishadi. Janjal ko'targan shaxslardan biri shubhali ko'ringani bois u bilan suhbatlashish jarayonida o'zini bejo tuta boshlaydi. Xodimlar xolislar ishtirokida uning yonini tekshirib ko'rishganida, shimi-

Tuman IIOFMB JTSB PPX otryadi xodimlari – safdorlar Berdiy Yermekbayev va Ravshan Rahimov o'zlariga birlashtirilgan hudud bo'ylab xizmat vazifasini o'tayotgan edi. Shubhali ko'ringan shaxs to'xtatilib, uning ma'lumotlari planshetdagi maxsus dastur orqali tekshiriladi. Shundan so'ng



ning cho'ntagidan 35 dona polietilen paketga o'ralgan sarg'ish kukunsimon giyohvandlik moddasi hamda 10 dona kapsulada «Zardeks» psixotrop tabletkalari borligi aniqlanadi. Ushbu fuqaroga nisbatan tegishli tartibda hujjatlar rasmiylashtirilib, 2-sonli IIBga olib kelib topshiriladi.

ushbu fuqaro Z.J. ekanligi va Jinoyat kodeksining 169-moddasi 2-qismi bilan ayblanib, qidiruvda ekanligi ma'lum bo'ladi. Unga nisbatan tegishli hujjatlar rasmiylashtirilib, tuman IIOFMBga olib boriladi.

Ko'pgina jinoyatlar o'tkir tig'li buyumlar vositasida sodir etiladi.



ladi. Shu bois PPX xodimlari muntazam ravishda «Tig'» profilaktik-ogohlantiruv tadbirlarini o'tkazib kelishadi. Natijada o'tgan 10 oy davomida 900 dan oshiq holatda o'tkir tig'li va boshqa shunga o'xshash jismlar olib yurgan shaxslar aniqlangan.

Joriy yilning 15-noyabr kuni kech soat 23:00 lar edi. Atrofda hech kim yo'q. Bir kimsa Yangi Qo'yliq ko'chasi bo'ylab yolg'iz o'zi ketayotgandi. Hamkorlikda faoliyat olib borayotgan PPX otryadi xodimi, safdor Jo'rabek Toshboltayev va profilaktika inspektori, leytenant Sherbek Boymanov uni to'xtatishadi. Fuqaro shaxsiga aniqlik kiritilib, yonlari tekshirib ko'rilganda, uning 1969-yilda tug'ilgan L.A. ekanligi hamda yonida pichoq borligi ma'lum bo'ldi.

Eng muhimi, jinoyat sodir etilishidan oldin uni bartaraf etishdir. Shu sababli ham xodimlar huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish doirasida avtoulavlarning eshik va oynalarini ochiq holda, o't oldirish tizimida kalitni qoldirgan fuqarolar bilan profilaktik suhbatlar o'tkazishadi. Shuningdek, qarovsiz qoldirilgan bolalar aravachasi, velosiped, skuter va samokatlarning egalari topilib, ular bilan ham ogohlantirish va profilaktik tushuntirish ishlari olib boriladi.

Xullas, tuman IIOFMB JTSB PPX otryadi xodimlari o'zlariga yuklatilgan vazifani ado etishda bor kuch va salohiyatini safarbar etmoqdalar.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

KONSTITUTSIYA – KELAJAGIM MASH'ALI

SHAXS HUQUQ VA MANFAATLARI KAFOLATI

Bugungi davr shiddatkor. Ko'plab sohalarda yangilanish, zamonga hamohanglik talab qilinayotgani hech kimga sir emas. Shu ma'noda, Bosh qomusimiz – Konstitutsiyamizning har tomonlama takomillashganini xalqimiz xohish-irodasining yorqin ifodasi deyish mumkin.

Konstitutsiyamizga kiritilgan o'zgartishlar, birinchi navbatda, inson huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bilan ahamiyatli. Xususan, 28-moddada birinchi marta «Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin», deb belgilandi.

Aslida aybsizlik prezumpsiyasi har bir shaxsga aynan shunday dadil pozitsiyada

bo'lishni kafolatlaydi. Endilikda aybsizlik prezumpsiyasiga binoan, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlab berishi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin. Odatda, shaxsga nisbatan jinoyat ishi boshlanganda u og'ir ruhiy holatga tushadi, o'zini yo'qotib qo'yadi, ana shu paytda u o'z huquqlarini to'liq anglay olmaydi. Aynan shunday ruhiy holatda kishi aybdorligini isbotlash uning



emas, tergov organlarining vazifasi ekanligini tushunmasdan, o'ziga qarshi ko'rsatmalar berishi, afsuski, amaliyotda uchraydigan ho-

latlardandir.

Yangi norma, ya'ni jinoiy ta'qib ostidagi shaxsning sukut saqlash huquqiga egaligi surishtiruv yoki tergovda unga bosim o'tkazib yoki kamsitib, undan noqonuniy ko'rsatma olinishini cheklaydi. Bundan tashqari, sukut saqlash huquqining Konstitutsiya darajasida mustahkamlangani aybsiz kishining bo'yniga unga mutlaqo aloqasi bo'lmagan, shu jumladan, fosh etilgan jinoyatlarni qo'yish kabi xatarlarning oldini oladi.

Shuningdek, Konstitutsiyaning 27-moddasi to'rtinchi qismida shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirili-

shi shartligi qat'iy belgilandi. «Miranda qoidasi» deb nomlangan mazkur norma surishtiruv, tergov va sud jarayonlarida qonun buzilishiga yo'l qo'yimaslikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Asosiy Qonunga kiritilgan normalar to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi qoidalar bo'lib, surishtiruv, tergov va sud jarayonida faqat ishonchli va qonuniy dalillardan foydalanishni ta'minlaydi. Eng muhimi, shaxsning huquq va manfaatlarini himoya qilinishini kafolatlashga xizmat qiladi.

Mirzohid ABDURASHIDOV,
Namangan viloyati
IIB huzuridagi Tergov
boshqarmasi O'MIB
tergovchisi, katta leytenant.



MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT DARS

XALQ KONSTITUTSIYASI BILAN XALQCHIL DAVLAT SARI

Taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ygan O'zbekistonda keyingi davrda Yurtboshimizning tashabbusi bilan keng ko'lamli islohotlar olib borilyapti. Mazkur islohotlardan ko'zlangan maqsadga to'laqonli erishish, o'z navbatida, Asosiy qonunimizni yanada takomillashtirish zaruratini keltirib chiqardi. Mamlakatimizning taraqqiyoti, xalqimizning ertangi farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos va ishonchli kafolat yaratish nuqtayi nazaridan Konstitutsiyaga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklifi ilgari surildi.

Konstitutsiya loyihasini tayyorlashda xalqimizning fikri, takliflarini inobatga olish ikki bosqichda amalga oshirildi. Xususan, birinchi bosqichda fuqarolardan Konstitutsiya loyihasini shakllantirishga qaratilgan 60 mingdan ziyod takliflar olindi. Ikkinchi bosqichda esa Konstitutsiya loyihasi umumxalq muhokamasiga qo'yildi. Aholi ommaviy axborot vositalari, internet tarmog'i orqali loyiha bilan tanishdi va fuqarolar tomonidan bildirilgan 220 mingdan ortiq takliflar qabul qilinib, ularning har to'rttasidan bittasi loyihadan joy olganligi yangilangan Konstitutsiya tom ma'noda xalq Konstitutsiyasi, uning yagona manbayi ham, muallifi ham xalq ekanlinining yana bir isboti bo'ldi. O'zining buguni va ertasiga befarq bo'lmagan yurtdoshlarimiz joriy yilning 30-aprelida bo'lib o'tgan muhim siyosiy tadbir – referendumda ishtirok etib, o'z qarorini erkin ifoda qildi. «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni shu sanada o'tkazilgan referendumda umumxalq ovoz berishi orqali qabul qilingan, deb hisoblandi.

Yangilangan Konstitutsiya yangi O'zbekistonni qurish g'oyasi atrofida butun jamiyatimizni jipslashtirishi, unda barcha qatlam manfaatlarini inobatga olinganligi, loyihani ishlab chiqishda keng jamoatchilik, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ekspertlik va ilmiy doiralar vakillari, ziyolilar faol ishtirok etganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etilishi va kafolatlanishi qayd etildi.

Yangi Konstitutsiyaning 20-moddasi beshinchi qismida «Inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasi-ga talqin etiladi» deyiladi. Bu qoidaning Bosh qomusimizga kiritilishi mamlakatimizda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini hamma narsadan ustun ekanligini yaqqol tasdiqlaydi. Ayniqsa, davlat va inson o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikdagi noaniqliklar turli tushunmovchiliklar, inson va fuqarolarning ortiqcha ovoragarchiliklari oldi olinadi. Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prin-

sipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarlicha asoslar mustahkamlanadi.

Yangi Konstitutsiyaning 23-moddasida O'zbekiston fuqarosi O'zbekistondan tashqariga chiqarib yuborilmasligi yoki boshqa davlatlarga berilmasligi belgilangan. Bu esa fuqarolarimizning doimiy ravishda davlat himoyasida ekanligiga ishonchini mustahkamlashga, o'z yurtidan chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berilishi kabi holatlarning oldi olinishiga xizmat qiladi. Shuningdek, davlat xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni saqlab qolishi hamda rivojlanishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishining belgilangan chet ellarda yashayotgan, ishlayotgan, ta'lim olayotgan vatandoshlarimizning O'zbekiston bilan doimiy aloqada bo'lishiga, tili, madaniyati, urf-odatlarini va an'analarni saqlab qolish hamda rivojlantirishga, o'zlarining tarixiy Vatani – O'zbekistonning obro'sini yanada oshirishga o'z hissasini qo'shishiga xizmat qiladi.



8-DEKABR

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI KUNI

Asosiy qonunimizning 27-moddasi uchinchi qismida hech kim sud qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligi belgilab qo'yilgan. Shuningdek, erkinlikni cheklashga faqat sud qarori asosida yo'l qo'yilishi haqidagi qoida mustahkamlandi. Ayblanuvchiga o'zi-ga qarshi ko'rsatma bermaslik, ya'ni «sukut saqlash» huquqi esa birinchi marta alohida belgilandi.

Bugungi kunda xalq ovozi va fikrini keng jamoatchilikka, davlat idoralari e'tiboriga olib chiqayotgan eng ta'sirchan kuch, bu – ommaviy axborot vositalari, jurnalistlardir. Muhtaram Prezidentimiz ham o'z chiqishlarida jurnalistlarni xalqning ovozi bo'lishida doim qo'llab-quvvatlaydilar. Yangi Konstitutsiyaning uchinchi bo'lim o'n beshinchi bobi aynan ommaviy axborot vositalariga bag'ishlanadi. Unda ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligi, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo'lgan huquqlari kafolatlangan.

Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalari faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'lishi ham qayd etilgan. Ushbu norma jurnalistlarning erkin, turli ma'muriy bosimlardan qo'rqmasdan faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Yurtimizda axborot erkinligining yanada yuksalishiga, jamiyatda ochiqlik va oshkoralik, qonuniylik muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi. Davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqotni mustahkamlashga, kuchli jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yishga va so'z erkinligini ta'minlashga erishiladi.

«Inson qadri uchun» tamoyili ayni damlarda yurtimizdagi har bir evrilish va islohotlarning bosh mezoniga aylanib ulgurdi. Yangi Konstitutsiyaning ikkinchi bo'limidagi har bir modda ushbu tamoyilning har jihatdan to'kisligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizning orzu-intilishlarini ro'yobga chiqarishda, yoshlarimiz kelajagi uchun mustahkam zamin hozirlashda Asosiy qonunimiz ularga beqiyos imkoniyatlar ochib beradi. Zotan, Prezidentimiz aytganidek, «Insonning qadr-qimmatini, sha'ni va g'ururi bundan buyon barcha sohalarida birinchi o'rinda turishi kerak».

Bir so'z bilan aytganda, hayotimiz qomusi – yangi Konstitutsiyamiz barcha yutuq va marralarimizning mustahkam huquqiy asosi. Ko'p ming sonli xalqimizning xohish-irodasi bilan yangilangan ushbu muhim hujjat, Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, Uchinchi Renessans uchun huquqiy poydevordir. Ana shu buyuk maqsadni amalga oshirishga munosib hissa qo'shaman, degan har bir yurtdoshimiz, avvalo, ushbu poydevorga tayanib harakat qilishiga ishonchimiz komil. Demak, biz xalq Konstitutsiyasi bilan xalqchil davlat sari dadil bormoqdamiz.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA.



TUMAN IIB FAOLIYATIDAN

XALQIMIZ ISHONCHI OQLANMOQDA

Huquqbuzarliklarning bar-vaqt oldini olish, profilaktik choralar ko'rish ichki ishlar organlari xodimlari oldiga qo'yilgan asosiy talablardan biridir. Shu ma'noda aytish mumkinki, bugun xalq osoyishtaligini ta'minlash yo'lida tun-u kun bedor va hushyor xizmat qilayotgan osoyishtalik posbonlari jinoyatlarning oldini olish bilan birga, sodir etilganlarini fosh etish, qonunbuzarlarga jazo muqarrarligini ta'minlashda ham jonbozlik ko'rsatyapti.

Bu borada Buxoro tumani IIBda ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. Barcha sohaviy xizmat xodimlari bir yoqadan bosh chiqarib, zimmalariga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarib, xalqimiz ishonchini oqlashmoqda.

«RABOTIQALMOQ»DA OSOYISHTALIK

«Rabotiqalmoq» mahallasida bunyodkorlig-u

paytda unda 2850 ta oila, 9354 nafar aholi istiqomat qiladi. Aholi asosan dehqonchilik, chorvachilik va Buxoro shahriga yaqinligi bois davlat tashkilotlarida faoliyat ko'rsatadi. Shuning uchun ishsizlar qayd qilinmagan. Oilalarning atigi 12 tasi kambag'allar turiga kirsa, yana 2 tasi notinch oila hisoblana-di. Ilgari jinoyat sodir qilgan va sudlangan shaxslar 11 nafarni tashkil etadi. Ichkilikka ruju qo'ygan 2 nafar shaxs profilaktik hisobda turadi.

ka inspektori lavozimida faoliyat ko'rsatib kelayotgan kapitan Shahob Ismoilov faollar bilan hamjihatlikda xizmat olib borayotgani bois jinoyatchilik va huquqbuzarlik holatlari keskin kamaydi. O'tgan yilning 10 oyi davomida 10 ta jinoyat sodir etilgan bo'lsa, joriy yilning shu davrida 2 ta jinoyat qayd qilindi. Ularning biri tan jarohati bilan bog'liq jinoyat, ikkinchisi yo'l-transport hodisasidir. Jinoyatlar muhokamasi ham o'z vaqtida o'tkazilib, keng jamoatchilik

integratsiya qilindi. Fuqarolarimiz buni ko'rib, noto'g'ri qadam bosishdan o'zlarini tiyishmoqda.

XIZMATIDAN FUQAROLAR MAMNUN

Xalq osoyishtaligini ta'minlashda fuqarolarning pasport tizimi qoidalariga rioya etishi

amal qilmagan fuqarolar ham aniqlandi. Aniqlangan qonunbuzarliklar yuzasidan 603 ta ma'muriy bayonnoma tuzildi. 474 nafar xorijlik fuqarolar vaqtincha ro'yxatga olindi.

Tuman IIB M va FRB boshlig'i, kapitan Feruz Xud-diyevning sa'y-harakatlari natijasida qidiruvda bo'lgan



obodonchilik ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Ayni

Mahallada o'tgan yilning avgust oyidan boshlab profilakti-

o'rtasida tahlil qilindi. Kelib chiqish sabablari o'rganildi.

– Hududimiz shu yilning yanvar oyida kamera-lashtirildi, – deydi mahalla raisi Rahimjon Jumayev. – 7 ta qishloq va 24 ta ko'chani barchasi, shuningdek, aholi g'ijum joylar hamda obyektlarga jami 51 ta videokuzatuv kameralari o'rnatildi. Kuzatuv kameralari profilaktika inspektorining xizmat xonasiga

Ayni kungacha fuqarolik pasportini almashtirish istagida bo'lgan 10100 nafardan oshiq shaxslarga ID-kartalar rasmiylashtirildi. Shuningdek, 5457 nafar fuqaroga xorijga chiqish biometrik pasporti berildi. Bundan tashqari, 2354 nafar fuqaro doimiy, 333 nafari vaqtincha yashash joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazildi.

Shu bilan bir qatorda, o'tkazilgan tadbirlar davomida pasport tartiboti qoidalariga

M. Pirnapasov ushlanib, IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti oltinchi mintaqaviy hududi 4-sonli tergov hibsxonasiga joylashtirildi.

Quvonarli jihati shundaki, joriy yilning shu kuniga qadar fuqarolardan soha vakillarining xatti-harakatlari yuzasidan hech qanday ariza va shikoyat kelib tushmagan. Bunday natijaga erishishda kapitan F. Xuddiyev boshchiligidagi jamoaning, ayniqsa, serjant Shamsiddin Nabotov, safdori Firdavs To'xtayevlarning xizmatlari tahsinga loyiq.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

XIZMATDAN TASHQARIDA

YANADA ZAVQ BAG'ISHLAYDI

Yurtimiz tinchlik-osoyishtaligi yo'lida tun-u kun beminnat xizmat qilib kelayotgan ichki ishlar organlari xodimlari orasida bo'sh paytini hayotiy qiziqishlariga bag'ishlayotganlar ham talaygina. Ulardan biri, Toshkent viloyatining, so'lim go'shalaridan bo'lmish Parkent tumani 1-sonli IIB navbatchilik qismi navbatchi yordamchisi, kichik serjant Sherzod Mirdavlatovdir. Xobbisi uzum yetishtirish bo'lgan bu inson qora kishmish, tornado va xasangi navlarini parvarishlab kelmoqda.

– Ishdan toliqib kelgan vaqtlarim tomorqaga chiqib biroz

jismoniy mehnat qilsam, barcha charchoqlarimni shu zahoti unutib, kayfiyatim ko'tariladi, – deydi lavhamiz qahramoni. – Shu bilan birga, atrof-muhit musaffoligi va ko'rkamligiga o'z hissamni qo'shayotganimdan faxrlanaman.

U erta bahordan oila a'zolari bilan o'z tomorqasida harakatni boshlaydi. Avvaliga qishda sovuq urmaslik uchun kech kuzda shox-shabbalar bilan yopilgan tok novdalarini ochib, atrofini yumshatadi. Keyin esa hasharotlar chiqmasligi uchun tanasini oqlab, ariq ochib toklarni sug'oradi.

Shundan so'ng kurtak ochib, barglari chiqqan tok novdalari gullab, meva tugishni boshlaydi. Uzum yaxshi yetilishi uchun shamol aylanishini ta'minlash maqsadida barglarining bir qismini yulib, xomtok qiladi. Agar zang kasalligi tushgan bo'lsa, uni bartaraf

etish uchun dori sepadi. Oradan biroz vaqt o'tib, g'arq pishgan uzumlar yig'ib olinib, dasturxonga tortiladi. Bir qismi qo'ni-qo'shni va qarindoshlarga tarqatilib, qolgani bozorga chiqariladi.

– Bog'dorchilik menga ota kasb, – deydi Sherzod Mirdavlatov. – Shu bois uni doimo qadrlab, bu boradagi bilimlarimni yanada oshirish uchun tajribali bog'bonlardan maslahat so'rab kelaman.

Bundan tashqari, hovlisida olma, behi, yong'og', o'rik, gilos va boshqa mevali daraxtlarni yetishtiradigan tinib-tinchimas bu yigitning dasturxonini doimo to'kin. Bu ishlarda unga turmush o'rtog'i Gulmiraxon va o'g'li Azizjon ham yaqindan yordam berib kelmoqda. Hovlida ochilgan turfa xil gullar esa kishiga zavq bag'ishlaydi.

Mixli SAFAROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.



MUXBIRLARIMIZ XABAR QILADI

MAHORATLILAR NAMUNA BO'LDI

Farg'ona shahrida «Namunali patrul-post xizmati xodimi» va «Namunali patrul-post xizmati qism komandiri» ko'rik-tanlovining respublika bosqichi yuqori ko'tarinkilikda tashkil etildi. Tanlov davomida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlardan yetib kelgan 56 nafar ishtirokchi test sinovi, 100 va 3000 metr masofaga yugurish, saf tayyorgarligi, 50 metrga suzish, qo'l jangi, o'q otish mashg'ulotlari va to'sinda tortinish kabi shartlarda mahoratini ishga solib, g'oliblik uchun bahslashdi.

Yakuniy to'plangan natijalarga ko'ra, jamoaviy hisobda Farg'ona viloyati jamoasi 965 ball to'plab, birinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Jizzax viloyati jamoasi 905 ball bilan ikkinchi, Navoiy viloyati jamoasi esa 832 ball bilan uchinchi o'rin sohibiga aylandi.

«Namunali patrul-post xizmati xodimi» nominatsiyasida Xorazm viloyati vakili, safdor Rashidbek Kenjayev birinchi, Qashqadaryo viloyati vakili, safdor Hamroqul Rahmonqulov ikkinchi, Sirdaryo viloyati vakili, safdor Xurshid Hoshimov uchinchi o'rinni egalladi.



«Namunali patrul-post xizmati qism komandiri» nominatsiyasida Samarqand viloyati vakili, mayor Mehroj Amonov mutlaq g'olib bo'lgan bo'lsa, qashqadaryolik mayor Durbek Nurmatov hamda namanganlik Qobil Miraliyev keyingi o'rinlarni band etdi.

Taqdirlash marosimida IIV JXX Jamoat tartibini saqlash xizmati boshlig'i, polkovnik Sherzod Ibragimov so'zga chiqib, g'oliblarni erishgan yutuqlari bilan tabrikladi.

G'olib va sovrindorlarga medal, qimmatbaho sovg'alar topshirildi.

Farg'ona viloyati.

XIVADA
YUGURISH MARAFONI

Xiva shahrida O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i qabul qilingan kun munosabati bilan «Muqaddasdir Vatan bayrog'i» shiori ostida «Yangi nafas» sport musobaqasi bo'lib o'tdi. Aholida davlat ramzlariga bo'lgan hurmat hissini yanada yuksaltirish maqsadida o'tkazilgan mazkur tadbir davlat bayrog'i qabul qilingan kun munosabati bilan «Muqaddasdir Vatan bayrog'i» shiori ostida «Yangi nafas» sport musobaqasi bo'lib o'tdi. Aholida davlat ramzlariga bo'lgan hurmat hissini yanada yuksaltirish maqsadida o'tkazilgan mazkur tadbir davlat bayrog'i qabul qilingan kun munosabati bilan «Muqaddasdir Vatan bayrog'i» shiori ostida «Yangi nafas» sport musobaqasi bo'lib o'tdi.

Tadbir davlat bayrog'i qabul qilingan kun munosabati bilan «Muqaddasdir Vatan bayrog'i» shiori ostida «Yangi nafas» sport musobaqasi bo'lib o'tdi. Aholida davlat ramzlariga bo'lgan hurmat hissini yanada yuksaltirish maqsadida o'tkazilgan mazkur tadbir davlat bayrog'i qabul qilingan kun munosabati bilan «Muqaddasdir Vatan bayrog'i» shiori ostida «Yangi nafas» sport musobaqasi bo'lib o'tdi.

Musobaqa g'olib va sovrindorlari qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

Xorazm viloyati.

MUSTAQILLIGIMIZ
RAMZI

Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligida O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i qabul qilinganligining 32 yilligiga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi.

Tadbirni Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vaziri o'rinbosari, podpolkovnik G'. Eshimbetov ochib berdi. Shundan so'ng yig'ilganlarga O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i mustaqil davlat ramzi ekanligi haqida gapirilib, uning ranglari mazmun-mohiyati to'g'risida ma'lumot berildi.

Tadbir so'ngida respublika miqyosida o'tkazilgan musobaqalarda g'olib bo'lgan xodimlar hamda ularning ota-onalariga tashakkurnoma, pul mukofotlari tantanali ravishda topshirildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV Axborot xizmati.



OYLIK DOIRASIDA

JISMONIY VA JANGOVAR SHAYLIK SINIVI

Joriy yilning 1-noyabridan 30-noyabr kuniga qadar IIV tizimida «Jismoniy va jangovar tayyorgarlik» oyligi doirasid joylarda ko'plab tadbirlar, sport musobaqalari tashkil etilmoqda.

IIV Xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta'minlash qo'shinlari qo'mondonligida saf ko'rigi o'tkazildi. Oylik munosabati bilan tashkil etilgan saf ko'rigini qo'mondonning birinchi o'rinbosari – shtab boshlig'i, polkovnik Iqboljon To'xtasinov o'tkazdi.



Qashqadaryo viloyati IIB Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi xodimlarining Shahrizabz shahrida joylashgan «Chubin» muzeyiga sayohati taassurotlarga boy bo'ldi.



Oylik doirasida IIV Xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta'minlash qo'shinlariga qarashli Samarqand shahrida joylashgan 7252-harbiy qismda mahorat darsi o'tkazilib, maxsus vositalar, o'qotar qurollar hamda jangovor texnikalar ko'rgazmasi tashkil etildi.

CHEKKA HUDUDLARDA

ODAMLAR TASHVISHIDA



Tuman markazidan «Quyosh» mahallasigacha o'n besh chaqirimcha masofa bor. Sirdaryo tumani IIB HPB profilaktika inspektori, kapitan Sherzod Karimovga bu yo'lining har bir qarichi yod bo'lib ketgan. Har kuni ikki-uch bor shu yo'ldan o'tadi. Har gal xayrli tashvish, turfa taqdirlar yechimi, egrilik payini qirqish niyati uni olg'a boshlaydi.

«Quyosh» Sirdaryo tumanining qo'shni Qozog'iston bilan chegaradosh mahallalaridan. Bu yerda qariyb 6 ming nafar aholi istiqomat qiladi. Mahalla ahli tadbirkor, ushoqqina yerdan unumli foydalanib, katta daromad qilish hadisini olgan. Ular orasida uchinchi sektor mas'ullari ko'magida yangi ish boshlaganlari ham anchagina. Hamidjon Narimonov (ismlar o'zgartirildi) ana shunday yoshlardan. U mahallaning ancha ichkarisida istiqomat qiladi. To'rt nafar farzandi bor. Lekin o'zi ham, turmush o'rtog'i ham ishsiz edi. Oilada daromad yo'q. Shu sababdan er-xotin o'rtasida qo'ydi-chiqdi mojarosi kuchaydi.

O'sha kunlarda mahallada sayyor qabul uyushtirildi. Hayotda qiyinchilikka duch kelayotgan Hamidjon tuman IIB boshlig'iga ish masalasida murojaat qildi. O'zaro suhbatda o'n sotix yeri borligini ma'lum qildi. Unga olti sotixli zamonaviy issiqxona barpo etishda ko'maklashish taklifi berildi. Bu ishlarga profilaktika inspektori Sherzod Karimov mas'ul etib tayinlandi. Subsidiya deyilgani bilan qancha hujjat rasmiylashtirish, ma'lumotnoma yig'ish zarur bo'lar-kan. Hamidjon bu ishlarga yo'q edi. Uning beminnat ko'makchisi sifatida kapitan joniga oro kirdi. O'n besh kun deganda hovlisida binoyidek issiqxona tiklandi.

Erta bahor yerga qadalgan nihollar ko'kka bo'y cho'zaverdi. Ayni aprelning o'rtalarida bodringlar yetilganida Hamidjon halol mehnatning samarasi boshqacha bo'lishini tushunib yetdi. Bu boshqacha tuyg'u edi. Shu tariqa, ijtimoiy muammolar yechila boshladi. Oilaga qut-baraka kirdi.

Kapitan Sherzod Karimov o'ta bolajon. U ta'lim muassasalari faoliyatida, bolalarning maktabga qatnashishini ta'minlash, voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida har kuni umumta'lim maktablarida kamida bir marta bo'ladi. Darsga besabab kelmagan o'quvchilarning uyida bo'lib, ota-onasi bilan suhbatlashadi. Ko'pincha oilaviy yumush sabab bolasini darsdan olib qolgan otalar uning oldida uyalib qolishadi. Sherzodning bir odati bor. Mana shunday paytda hadeganda ma'muriy bayonnoma rasmiylashtiravermaydi. Avval vaziyatni surishtiradi. Ota-onalarni ayaydi. Bu odati unga obro' keltirgan. Maktab o'quvchilari ham uni yaqindan tanib qolishgan. Bunga yoshligidan sportga ishqibozligi qo'l keldi. O'quvchilar o'rtasida voleybol, minifutbol, erkin kurash musobaqlarini tez-tez uyushtirib turadi. Masalaning moddiy tomonini yechish uchun mahalla raisi, maktab ma'muriyati, homiy tadbirkorlarni jalb qiladi.

Intilganga tole yor, degan gap bor. «Quyosh» mahallasi Sirdaryo tumanining jinoyatchiligi kamaygan «yashil» mahallalaridan. O'tgan yili ham, joriy yilda ham jinoyatchilikning o'sishiga yo'l qo'yilmadi. Ayniqsa, og'ir turdagi jinoyatlar qayd etilmadi. Voyaga yetmaganlar o'rtasida ham ana shunday salbiy holatlar uchramadi. Bularning barchasi doimiy izlanish, odamlarni to'g'ri yo'lga boshlash, ularning dardu tashvishi bilan yashash samarasidir.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
«Postda» muxbiri.

Sirdaryo viloyati.



★ Как живешь, РОВД?

НА ПЕРЕДОВОЙ КРУГЛЫЕ СУТКИ

Когда пару лет назад в Ходжаабадском районе Андижанской области стала внедряться программа «Безопасная территория», работу начали с приграничных махаллей. Была составлена «дорожная карта», в которую внесли четкие цифры протяженности границ с соседним Кыргызстаном, наличие родственников у жителей приграничных махаллей на сопредельной территории, другую актуальную информацию.

Инспектор профилактики капитан Умидбек Нурматов служит на одном из ответственных участков – в приграничной махалле Дилкушод. Благодаря эффективной работе инспектора и махаллинских активистов за текущий год здесь не допущено совершения ни одного преступления.

– На участке 32 камеры наружного наблюдения, – рассказывает капитан У. Нурматов. – От их зоркого глаза не ускользнет ни одно правонарушение. Современная техника – хорошее подспорье в работе. Вместе с председателем схода граждан Мавлоном Саиджахоновым, помощником хокима Акбаржоном Тошхужаевым, лидером молодежи Фахриддином Комиловым, активисткой по женским вопросам Олтиной Рахматуллаевой решаем имеющиеся проблемы, занимаемся трудоустройством граждан, проводим подворные обходы.

– С начала года женщинам, пострадавшим от домашнего насилия, выдано более сотни охранных ордеров, – вступает в разговор старший инспектор по вопросам женщин лейтенант Дилноза Нурмухамедова.

ноза Нурмухамедова. – К примеру, ко мне за помощью обратилась женщина из махалли Чирокчи. Она рассказала, что работает в одной



Старший следователь следственной группы подполковник Нодирбек Содиков.



Начальник организационного отделения подполковник Шерзод Бузруков со старшим инспектором группы по работе с несовершеннолетними и молодежью майором Хуршидбеком Кодировым в уголке патриотизма.

из школ областного центра. Рано уезжает и поздно возвращается на общественном транспорте. С подачи свекрови муж стал ее ревновать. Однажды, когда женщина вернулась домой после педсовета,

замок на двери сломан, из дома пропали телевизор, несколько ковров и другие вещи. Оперативники нашли взломщика благодаря камерам наружного наблюдения. Подозреваемый в совершении преступления был задержан.

– В отношении вора возбуждено уголовное дело по ст. 169 Уголовного кодекса Республики Узбекистан, – рассказывает старший следователь следственной группы при Ходжаабадском РОВД подполковник Нодирбек Содиков. – В ходе следствия ранее неоднократно судимый У. О. всячески отрицал вину. Но когда ему представили видеозапись, на которой он грузит на попутный «Дамас» украденные вещи, мужчина сник и стал давать признательные показания.

Шерзод Бузруков пошел по стопам отца. Аббосхон Бузруков более 30 лет прослужил в Ходжаабадском РОВД. На заслуженный отдых вышел в звании подполковника с должности заместителя начальника РОВД.

Шерзод после окончания Андижанского государственного университета был принят рядовым сотрудником в отдел охраны при Андижанском ГОВД. Служил помощником начальника, инспектором отделения профилактики правонарушений Ходжаабадского РОВД. В настоящее время подполковник Шерзод Бузруков является начальником организационного отделения вышеназванного отдела внутренних дел. Служебных забот немало, но он успешно справляется со своим участком работы и эффективно продолжает дело отца.

Борис КЛЕЙМАН,
соб. корр.

Андижанская область.



Старший инспектор по вопросам женщин лейтенант Дилноза Нурмухамедова с активисткой махалли Хаитхон Абобакировой.



Инспектор профилактики капитан Умидбек Нурматов на вверенном участке беседует с жительницей Лазокат Мамажановой.

ревнивец ее избил. В дальнейшем стал угрожать расправой. Вместе с инспектором профилактики мы тщательно изучили обстановку в этой семье. Женщине был выдан охранный ордер. Вскоре она нашла работу по профилю в Ходжаабадском районе. В семье царит спокойствие.

Еще один пример из будней сотрудников. В Ходжаабадский РОВД с заявлением обратился житель махалли Бешковок. Он рассказал, что его племянник вместе с женой уехали на заработки в Россию, а его попросили присматривать за домом. Когда мужчина рано утром пришел в дом племянника, то обнаружил, что



Урок духовности и просвещения

С НАРОДНОЙ КОНСТИТУЦИЕЙ К ПОДЛИННО НАРОДНОМУ ГОСУДАРСТВУ

«Наш народ, сделав свой выбор, проголосовал за обновленную Конституцию... Народ, многое повидавший на своем веку, высоко ценящий мирную жизнь, честь и достоинство человека, еще раз на деле подтвердил свою приверженность идеалам демократии, свободы, равенства, социальной справедливости и солидарности».

Шавкат МИРЗИЁЕВ.

30 апреля 2023 года путем всенародного голосования на референдуме принята новая редакция Конституции Республики Узбекистан, которая является прочной правовой основой строительства Нового Узбекистана. Количество статей в Конституции увеличилось со 128 до 155, конституционных норм – с 275 до 434. В целом Конституция была изменена более чем на 65 процентов.

В ходе формирования норм Конституции в новой редакции были изучены и проанализированы свыше 220 тысяч предложений, поступивших от граждан и организаций. Сбор предложений осуществлялся через веб-портал «Bu mening Konstitutsiyam» («Это моя Конституция»), Telegram, по телефону, по электронной и обычной почте, а также через Единый портал интерактивных государственных услуг.

Изменения, внесенные в Конституцию, направлены на реализацию принципа «человек-общество-государство», где приоритетное место отводится личности, ее правам и свободам. За изменение Основного закона проголосовали 90,2 процента избирателей. Это еще раз подтверждает, что подлинным его автором является народ.

Обновленные конституционно-правовые условия обуславливают необходимость дальнейшего совершенствования основных векторов развития государства и общества. В связи с этим приняты Стратегия «Узбекистан – 2030», указы Президента «О первоочередных мерах по реализации Конституции Республики Узбекистан в новой редакции» от 8 мая 2023 года, «О внесении изменений и дополнений в некоторые акты Президента Республики Узбекистан в связи с принятием Конституции Республики Узбекистан в новой редакции» от 7 ноября 2023 года, ряд других документов, которые направлены на обеспечение прав и свобод граждан, верховенства закона, укрепление экономики и безопасности.

Вышеуказанные задачи имеют целью формирование подлинно народного государства, основным признаком которого является участие граждан в установлении публичного порядка, его признание и поддержку.

Преамбула Конституции нашей страны начинается со слов «Мы, единый народ Узбекистана...», что подчеркивает сопричастность всего многонационального народа к проводимым в республике реформам, принимаемую ответственность перед будущими поколениями.

Человека – высшая цель государства.

Важное значение имеет закрепление в Конституции права граждан в количестве не менее ста тысяч человек в порядке законодательной инициативы вносить в Олий Мажлис свои предложения. Ценность народной законодательной инициативы заключается в том, что она позволяет соотечественникам напрямую воздействовать на законотворческую



В обновленной Конституции Узбекистан провозглашается суверенным, демократическим, правовым, социальным и светским государством с республиканской формой правления. Государство служит интересам народа, выражает его волю.

В Основном законе особое внимание уделено гарантиям защиты прав и интересов практически всех категорий населения, среди которых молодежь, женщины, лица с ограниченными возможностями, лица, попавшие в орбиту уголовного судопроизводства, и т. д. В этом плане в ст. 54 Конституции определено, что обеспечение прав и свобод че-

деятельность представительного органа, вносить на его рассмотрение законопроекты, отражающие злободневные вопросы.

В нормах Основного закона закреплены принципы института Хабеас корпус, Правила Миранды, презумпции невиновности, усилены гарантии адвокатской деятельности, направленные на обеспечение прав личности в судебно-правовой сфере.

Принятие Конституции в новой редакции – выдающееся событие в истории нашей страны. В соответствии с распоряжением Президента от 16 ноября 2023 года утверждена Программа по подготовке и проведению праздничных



мероприятий, посвященных Дню Конституции Республики Узбекистан. Программой предусмотрены организационно-практические и духовно-просветительские мероприятия, воплощающие идею «Конституция – основа подлинно народного государства, стабильного развития и процветающей жизни!».

В их числе:

- организация в районных и городских центрах «улиц Конституции»;
- проведение конкурса среди журналистов и блогеров «Лучший пост и статья, разъясняющие нормы Конституции»;
- издание Конституции в новой редакции шрифтом Брайля;
- организация выставки архивных документов, посвященных истории создания Конституции;
- проведение в государственных организациях массового общереспубликанского диктанта на тему «Моя Конституция и государственный язык» под девизом «Моей Конституции 31 год»;
- организация среди учащихся школ конкурса рисунков и сочинений на темы «Конституция народа», «Конституция – свет моего будущего» и др.

Достойная встреча Дня Конституции страны будет способствовать сплочению граждан, утверждению идей демократии, свободы и равенства, социальной справедливости и единства.

Людмила ЮГАЙ,
доктор юридических наук,
подполковник.



ТҶҲХАТ ҶРНИДА

МЕҲРИБОН УСТОЗ, САДОҚАТЛИ ДЎСТ

Орамизда ўз ҳаловатидан кечиб юрт манфаатини биринчи ўринга қўйган, фидойи замондошларимиз кўпчиликини ташкил этади. Бутун фаолиятини она Ватанимиз осойишталигини таъминлашга бағишлаган ана шундай фидойи инсонлардан бири ИИБ Фахрийлар кенгаши аъзоси, истеъфодаги полковник Акбар Жалиловдир.

Қаҳрамонимизнинг падари бузрук-вори Холмат ака узоқ йиллар прокуратура тизимида ишлаб, юртимизда қонун устуворлиги таъминланишига катта ҳисса қўшган эди. Акалари – истеъфодаги полковниклар О.Жалилов ва Ҳ.Жалилов ҳам ҳуқуқ-тартибот органларида раҳбарлик лавозимларида хизмат қилиб, отаси бошлаб берган шарафли йўлни давом эттиришди. Оиладаги кенжа ўғил Акбар эса Тошкент давлат педагогика инсти-тутида таҳсил олиб юрган вақтида келгуси ҳаёти ва фаолияти акалари каби ҳуқуқ-тартибот органлари билан боғланишини ҳали билмасди...

Оиладаги суҳбатлар, отаси ва ака-ларига бўлган ҳавас уни ички ишлар органларида хизмат қилишга ундади. Синовлардан муваффақиятли ўтгач, пойтахтимизнинг Уchteпа туманида участка инспектори лавозимида иш бошлади. Шундан сўнг ИИБ Транс-портдаги ИИБ Шахсий таркиб билан ишлаш хизмати кадрлар билан ишлаш бўлими инспекторлигидан то бошқарма бошлиғининг ўринбосари – Шахсий таркиб билан ишлаш хиз-мати бошлиғи лавозимига бўлган шарафли ва машаққатли йўлни босиб ўтди.

Таъкидлаш лозимки, ҳуқуқий билимини ошириш мақсадида кей-инчалик ИИБ Академиясида таҳсил олган А.Жалилов хизмат жараёнида ходимларни танлаш, жой-жойига қўйиш, уларнинг билим ва малака-сини ошириш, айниқса, ёш ходимлар соҳа сирларини қунт билан пухта ўрганишлари алоҳида эътибор қаратди.

Йиллар бир-бирини қувиб шамол-дек ўтиб кетар экан. Кечагина ёш ходим сифатида хизматни бошла-ган А.Жалиловнинг ўзи бугун устоз. Республикаимизнинг қай ҳудудига бор-масин, шогирдлари уни очик чеҳра билан қарши олади.

– Акбар ака ўзининг самимийли-ги, пайти келганда, қатъияти билан бизга ҳанузгача ўрнатилган бўлиб келяпти, – дейди ИИБ Транспорт ва туризм объектларида хавфсизликни таъмин-лаш департаменти батальон коман-дирининг ўринбосари, подполковник Беғали Маҳмадалиев. – Ҳушмуомала-лиги сабаб, ходимлар муаммоларини айтишдан тортинмасди. Акбар ака инсон бировдан тартиб-интизомни талаб қилишдан олдин, ўзи унга риоя қилиши керак, деб ҳисобларди. Ва бу ақидага қатъий амал қиларди.



Подполковниклар Қосимжон Сат-торов, Беғали Маҳмадалиев, истеъ-фодаги подполковник Абдуллабек Тўрабеков ва бошқа кўплаб шогирд-лари ҳақли равишда устози билан фахрланишади. Бугун ҳам устознинг маслаҳатларига эҳтиёж сезсалар, ҳеч иккиланмай унга мурожаат қилишади. Улар ҳам Акбар ака сингари бу дунёда устоз тарбиясисиз, йўл-йўриғисиз бирор муваффақиятга эришиб бўл-маслигини яхши билишади.

– Неча ёшда бўлмайлик, барча ютуқларимиз замирида устозла-римизнинг хизмати улкан, – дейди истеъфодаги полковник Акбар Жали-лов. – Шу боис устозларим Ҳамидхон Набионов, Ўткир Пармонов ҳамда Акмал Тошматовнинг йўл-йўриқ, панд-насихатларини ҳар доим мин-

натдорлик ҳисси билан эслайман.

Акбар Жалилов айна пайтда турмуш ўртоғи Феруза ая билан бирга қобил фарзандлари, неваралари эҳтироми-да бахтли ҳаёт кечирмоқда. Айтганча, унинг ўғиллари, подполковниклар Санжар ва Азамат Жалиловлар ҳам ота изидан бориб, мамлакатимизда ҳуқуқ-тартиботни мустаҳкамлашга хизмат қилмоқда.

Айни кунда табаррук 65 ёшни қаршилаётган Акбар Жалиловнинг хонадонига дўстлари, ҳамкасблари ва шогирдлари тез-тез ташриф бую-риб туради. Бир сўз билан айтганда, файзли хонадондан яхши одамлар-нинг қадами узилмайди...

Шерзод АБДУСАМАДОВ,
ўз мухбиримиз.

СУЛОЛА

ШАРАФЛИ ЙЎЛ ДАВОМЧИЛАРИ

Ички ишлар органлари тизимида сулолавий тарзда тинч-лик-осойишталигимизга муносиб ҳисса қўшиб келаётган-лар ҳам талайгина. Улардан бири Ёқубовлар оиласидир.



Сулола бошлиғи истеъ-фодаги полковник, техника фанлари доктори, профес-сор Мақсад Ёқубов узоқ йиллар ИИБ Академиясида Ахборот-ҳисоблаш техни-каси ва алоқалар кафедр-аси мудири лавозимида фаолият кўрсатиб, бўлажак осойишталик посбонлари-га сабоқ берди. Ҳозиргача 40 га яқин фан доктори ва фан номзодларига устозлик қилган М. Ёқубов 20 дан

ортиқ монография ва ўқув қўлланмаларини яратди. Шунингдек, 15 га яқин ил-мий лойиҳаларга раҳбарлик қилди. Юртимиз ва хорижий олий таълим муассасалари-нинг ихтисослашган илмий кенгашлари аъзоси бўлган олим мамлакатимиз ёшлар-ининг замонавий мутахас-сисликлар бўйича таълим олишида ҳам жонбозлик кўрсатмоқда. Бундан ташқари, 70 ёшни қаршилаётган

олим вилоятлардаги олий ўқув юртларида илмий из-ланишлар олиб бораётган 60 га яқин тадқиқотчиға беғараз ёрдам кўрсатиб келаётир.

– Билимли ва мала-кали кадрларни тай-ёрлаш энг муҳим ва-зифамиздир, – дейди Мақсад Ёқубов. – Шу боис билганларимни эртанги кунимиз эгалар-ига астойдил ўргатиб келяпман.

Унинг тўнғич ўғли Азизхон Ёқубов ҳам ота касбини танлаб кам бўлмади. ИИБ Акаде-миясини муваффақи-ятли тамомлаб, тергов соҳасида фаолият юрит-ди. Кўп йиллар Тошкент шаҳар ИИББ ҳузуридаги Тергов бошқармасида бў-лим бошлиғи лавозимида хизмат қилиб, жиноятчилик-ка қарши курашиш, унинг олдини олиш ва жазо муқар-рарлигини таъминлашда ўзининг талабчанлиги ва уддабуронлиги билан ҳам-касбларига намуна бўлиб келган А. Ёқубов подполков-ник унвонида иззат-икром

билан пенсияга кузатилди.

Айни пайтда ИИБ ҳузури-даги Тергов департаменти Коррупция, фирибгарлик ва иқтисодиёт соҳасидаги жи-ноятларни тергов қилиш бў-лимининг ўта муҳим ишлар бўйича терговчиси лаво-зимида хизмат қилаётган Хуршид Ёқубов ҳам отаси ва акасининг изидан бор-ди. Илк хизмат фаолиятини пойтахтимизнинг Юнусобод тумани ИИБ ҳузуридаги Тергов бўлими терговчи-си лавозимида бошлаган ходим тинимсиз изланиши туфайли мазкур бўлим кат-та терговчиси, ўта муҳим ишлар бўйича терговчи, кейинчалик Тошкент шаҳар ИИББ ҳузуридаги Тергов бошқармасида турли лаво-зимларда хизмат қилди.

Зиммасидаги масъулият-ни чуқур ҳис этган Х. Ёқубов халқаро ўқув машғулоти-лари ва семинар-тренингларда ҳам ўзининг долзарб мав-зулардаги факт ва мулоҳа-заларга бой таҳлилий маъ-рузалари билан иштирок этиб, барчанинг эътиборини қозониб келмоқда.

Ана шундай самарали

хизматлари муносиб эъ-тироф этилиб, маҳоратли терговчи турли даражадаги мукофотлар билан тақдир-ланмоқда. Айниқса, халқ осойишталигини таъмин-лашдек масъулиятли вазифани шараф билан адо этиб келаётган Х. Ёқубовнинг яқинда «полковник» махсус унвони билан тақдирланган-ни оила аъзоларига янада қувонч бағишлади.

Сулоланинг яна бир да-вомчиси, Х. Ёқубовнинг қизи Зиёдаҳон Ёқубова ИИБ 1-сонли Тошкент академик лицейида таҳсил олмоқда. Келажакда у ҳам ўқишни ИИБ Академиясида давом эттириб, отаси каби таж-рибали терговчи бўлиш орзусида.

– Турмуш ўртоғим, ўғил-ларим ва набирамнинг ана шундай шарафли касбни танлаганидан фахр туйғуси-ни ҳис этаман, – дейди На-фиса Юнусова. – Чунки она Ватан осойишталиги йўлида хизмат қилиш ҳаммага ҳам насиб этавермайдиган бахт.

Михли САФАРОВ,
ўз мухбиримиз.



«YASHIL MAKON»

UMUMMILLIY LOYIHA DOIRASIDA KATTA BOG' YARATILDI



Ona tabiatni asrash, uni kelajak avlodga bus-butun yetkazish har birimizning insoniylik burchimizdir. Ekologiyani yaxshilash borasida Yurtboshimiz tashabbusi bilan boshlangan «Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasida ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda.

Mazkur tashabbusni qo'llab-quvvatlagan holda, Ichki ishlar vazirligi jamoasi, sohaviy xizmat rahbarlari hamda xodimlar Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumani Qoranko'l qishlog'ida «Ichki ishlar vazirligining ramziy bog'i»ni yaratishdi. Tadbirda Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Po'lat Bobojonov ishtirok etib, mazkur bunyodkorlik ishlari ichki ishlar organlarining har bir xodimi

shaxsiy namuna va tashabbus ko'rsatishi lozimligini, obodonlashtirish va ko'chat ekish ishlari respublikamizning barcha hududlarida uyushqoqlik bilan amalga oshirilishi zarurligini ta'kidladi.

Shundan so'ng vazirlik rahbariyati hamda ming nafarga yaqin xodimlar ko'chat ekish uchun mo'ljallangan maydonda sakkiz mingga yaqin turli daraxt ko'chatlari, jumladan, tuya archa, qrim sosnasi, yong'oq, bodom, shuningdek, hudud iqlimiga mos gul ko'chatlarini ekdilar.

Ekologik muvozanatni saqlash, kelajak avlod uchun yashillikni ta'minlash ko'zlangan mazkur ezgu loyiha bugun yosh-u keksani bir maqsad yo'lida birlashtirdi.

Ta'kidlash lozimki, bunyodkorlik, ezgulik va birdamlik g'oyalarini o'zida mujassam etgan hashar mobaynida qarovsiz yotgan ulkan maydon ko'rkam boqqa aylandi. Xodimlarning jonkuyarliligi va hamjihatligi bois bog' atrofi turli chiqindilardan tozalaniib, daraxt ko'chatlariga ishlov berildi.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan «Yashil makon» loyihasi ezgu qadriyatlarimiz davomiyligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda. Ushbu dastur doirasida hashar tadbirlari mamlakatimizning barcha joylarida hududiy ichki ishlar bo'linmalari xodimlari tomonidan 1-dekabrga qadar amalga oshiriladi.

IIV Axborot xizmati.

TANLOV

EZGU MAQSAD, EZGU O'Y BILAN

IIV Madaniyat saroyida IIV JXD Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati, Bosh prokuratura, Adliya vazirligi hamda respublika «Istiqbolli avlod» nodavlat-notijorat tashkiloti hamkorligida o'tkazilgan «Xotin-qizlar orasida qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan eng yaxshi ijtimoiy videoroliklar» tanlovining yakuniy bosqichi g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Mutasaddi tashkilot va idoralar vakillari hamda yoshlar ishtirok etgan tadbirda so'z olgan IIV JXD Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati boshlig'i o'rinbosari, polkovnik Umida Abdullayeva ushbu tanlovdan ko'zlangan asosiy maqsad yoshlar ong-u shuurida zo'ravonlikka qarshi kurashda murosasizlik kayfiyatini uyg'otish ekanligini ta'kidladi. Va yoshlarga zo'ravonlik, huquqbuzarlik tushunchalarini hayotiy misollar bilan atroflicha tushuntirib berdi. Bu yo'nalishdagi



amaliy ishlarda keng jamoatchilik, ayniqsa, yoshlarning huquqiy savodxonligi oshishida ijtimoiy roliklarning ahamiyati katta ekanligini aytib o'tdi.

Ma'lumot o'rnida ta'kidlash joizki, «Xotin-qizlar orasida qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan eng yaxshi ijtimoiy videoroliklar» tanlovi

ikkinchi bora o'tkazilmoqda. Joriy yilgi tanlovga 100 dan ziyod ijtimoiy videoroliklar kelib tushgan. Va ijodiy ishlar ishchi guruh tomonidan xolisona o'rganib chiqilib, baholandi. Yakuniy natijalar esa quyidagicha e'lon qilindi. Birinchi o'rinni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti kino-teleoperatorlik fakul-

teti 3-bosqich talabasi Akmalxo'ja Rasxo'jayev egalladi. Ikkinchi o'rin Toshkent davlat yuridik universitet dotsenti Kamola Aliyevaga nasib qildi. Uchinchi o'ringa esa, Urganch shahar «Ishga marhamat» monomarkazi direktori Shirin Ro'zmatova loyiq ko'rildi.

Shuningdek, tanlov doirasida «Eng yaxshi operator», «Eng yaxshi videomontajchi» va «Eng yaxshi infografist» nominatsiyalari bo'yicha ham g'oliblar aniqlandi. Barcha sovrindorlarga diplom, pul va esdalik sovg'alari topshirildi.

– Tanlovda g'olib bo'lishimni kutmagandim, – deydi birinchi o'rin sohibi Akmalxo'ja Rasxo'jayev. – Bunday tanlovlar biz kabi yoshlarni o'z ustimizda ishlashga, mazmun-mohiyati chuqur videoroliklar tayyorlashga undaydi. Qolaversa, o'z ijodiy ishlarim bilan birgina insonning hayotida, uning taqdirida burilish yasa ololsam, bundan faqat xursand bo'laman.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.



Безопасный туризм



ИНДУСТРИЯ ГОСТЕПРИИМСТВА

Туризм по праву именуют индустрией гостеприимства. Наличие исторических достопримечательностей, развитая инфраструктура – основные факторы привлекательности той или иной страны для любителей путешествий.

Для того, чтобы от пребывания у гостей остались самые теплые и светлые воспоминания, нужна атмосфера безопасности, комфорта и доброжелательности. Весомый вклад в ее создание вносят сотрудники Управления обеспечения безопасного туризма УВД Бухарской области, отвечающие за соблюдение прав и законных интересов местных и зарубежных туристов.

Сотрудники управления на постоянной основе проводят встречи и профилактические беседы с теми, кто задействован в турбизнесе. Это широкий круг физических

и юридических лиц: туроператоры, турагенты, гиды-экскурсоводы, сопровождающие инструкторы, персонал гостиниц, работники логистических фирм, водители, ремесленники и предприниматели, осуществляющие деятельность на исторических объектах.

Не остаются в стороне и гости. Поясняя правила пребывания в Узбекистане, в том числе в древней Бухаре, представители управления дают ответы на интересующие их вопросы. Знание русского, английского, японского, корейского, французского, испанского, арабского

и других языков позволяет стражам правопорядка вести свободный диалог.

За минувший период года сотрудники управления обеспечили безопасность членов свыше 30 официальных делегаций. Это порядка 500 иностранных туристов. Также оказали доврачебную медицинскую помощь путешественникам, прибывшим в индивидуальном порядке. Поиск и возвращение забытых гостями вещей и документов также входит в круг их обязанностей.

Миршод НЕМАТОВ,
старший лейтенант.
Бухарская область.

Выездные приемы

РЕШАЯ ВОПРОСЫ ГРАЖДАН

Руководством УВД Навоийской области проведены выездные приемы для жителей города Зарафшана, Тамдынского и Учкундукского районов.

Рассмотрено несколько десятков обращений граждан. В их числе связанные с взысканием алиментов на содержание ребенка, оформлением кадастровых документов, получением материальной помощи, льготных кредитов для начала предпринимательской деятельности.

Проводимые на местах выездные приемы дают ожидаемые результаты в своевременном решении вопросов, волнующих людей. К примеру, житель-

нице города Зарафшана Мафтуне Бердимуродовой помогли трудоустроиться в городское медицинское объединение.

Положительно решен вопрос с выделением субсидии на приобретение швейной машинки Дилрабо Бобоноровой из Тамдынского района. Теперь женщина сможет заниматься пошивом одежды в качестве индивидуального предпринимателя.

**Сирожиiddин
ДЖУРАБАЕВ.**



Лучшие в своем деле

ГЛАВНОЕ – ПРЕОДОЛЕТЬ СОМНЕНИЯ



«В нашей службе важны мельчайшие детали, чтобы раскрыть дело, им следует уделять особое внимание», – повторял следователь СО при УКД ОВД Юнусабадского района подполковник Алексей Дегтярев, который являлся одним из самых грамотных и профессиональных следователей в республике.

Эльвире Джамилевой после окончания Академии МВД посчастливилось работать вместе с ним. Алексей Дегтярев стал ее наставником, который учил молодого специалиста расследовать самые запутанные дела.

– Благодарна судьбе, что на моем жизненном пути повстречался такой замечательный профессионал своего дела, – говорит следователь по особо важным делам аналитического отдела СУ при ГУВД города Ташкента подполковник Э. Джамилова. – Было немало громких дел, которые мы раскрыли за короткий срок. Благодаря его советам училась, выстраивала логическую цепочку и подводила итоги.

За 32 года службы Эльвире Маратовне пришлось расследовать разные дела, в которых фигурировали и рецидивисты, несколько раз отбывавшие наказание, и люди, совершившие ошибку, раскаивавшиеся в содеянном.

Через некоторое время Э. Джамилеву перевели в аналитический отдел СУ при ГУВД, где она сейчас занимает должность следователя по особо важным делам. Подполковник ежемесячно сдает отчеты по итогам работы следственных подразделений. Регулярно проводит анализ криминальной обстановки по махаллям всех районов столицы, отмечает показатель раскрытых престу-

плений. Совместно с коллегами осуществляет анализ структуры преступности, сколько преступлений совершено женщинами и несовершеннолетними и др.

Эльвира Маратовна родилась в семье медиков, но уже в старших классах твердо решила стать сотрудником правоохранительных органов и поступать в Академию МВД. Ее 13-летняя дочь, Согдиана, увлекается изучением иностранных языков и математикой. Девочка еще не решила кем станет, когда вырастет, но уверена, что будет такой же, как ее мама – доброй, справедливой и отзывчивой.

Мардона БАХТИЯРОВА.



★ Yo'l boshida

«BOLALAR HIMOYAMIZ OSTIDA»

Endigina o'n oltiga to'lgan Zulfiya tabiatan tortinchoq qiz. Shu sababdanmi, maktabdagi sinfdoshlari bilan uncha chiqisholmaydi. Aslida, uning jizzakiligi oiladagi nosog'lom muhit ta'siridan. Yolg'iz onasi Zulfiyani singlisi bilan ammasiga qoldirib, o'zi xorijga ishlagani ketdi. Na nazorat qiladigan, na u bilan dildan suhbatlashib, hol-ahvoliga qiziqadigan mehriboni bor. Shundan bo'lsa kerak, Zulfiyaning o'qishga qiziqishi yo'qoldi. Oilaviy yetishmovchilik tufayli oshxonalardan biriga ishga kirib, pul topa boshladi. Shu tariqa, maktabni butunlay tashlab qo'ydi.



Bundan xabar topgan Jarqo'rg'on tumani IIB HPB voyaga yetmaganlar bo'yicha inspektor-psixologi, katta leytenant Nasiba Majitova o'smir qizning oilaviy sharoitini o'rganishga kirishdi. Masala oydinlashgach, Zulfiya bilan profilaktik suhbat olib borishga kirishdi.

Davomiy suhbatlar natija berib, Zulfiyaning ruhiyatida o'zgarish ro'y bera boshladi. Bu orada inspektor-psixolog uning onasi bilan ham bog'lanib, voyaga yetmagani uchun qizi tengqurlari kabi maktabda ta'lim olishi kerakligini tushuntirdi. Qizining taqdiriga befarq qaramasligini so'radi. Oradan hech qancha o'tmay, Zul-

fiyaning onasi xorijdan qaytib keldi. Shundan so'ng Zulfiya maktabdagi darslarini qoldirmaydigan bo'ldi. Hatto fan to'garaklariga qatnasha boshladi...

Katta leytenant Nasiba Majitova o'z xizmat vazifasini bajarish chog'ida Zulfiya kabi hayotida salbiy o'zgarishlar bo'ladigan voyaga yetmaganlarga yordam qo'lini cho'zmoqda.

Tumandagi mavjud 67 ta maktabda muntazam ravishda «Davomat», «Tig'» tadbirlari o'tkazib kelinmoqda. Shunday tadbirlar natijasida yil boshidan beri ta'lim-tarbiya berish borasidagi majburiyatlarni bajarmas-

lik bo'yicha 401 ta holat aniqlanib, voyaga yetmaganlarning ota-onalariga ma'muriy chora ko'rildi. 12 nafar o'quvchi viloyat Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirilgach, ularning ta'lim-tarbiyasida ijobiy tomonga o'zgarish bo'lishiga erishildi.

«Xavfsiz xonadon», «Xavfsiz bola» tadbirlari davomida notinch va nizoli oilalar, ajrim yoqasida bo'lganlar, ota-onasi uzoq muddatga chiqib ketganlar, ota-onasi jazoni ijro etish muassasasida jazo o'tayotgan bolalarning ijtimoiy ahvolini o'rganish maqsadida manzilli ishlar olib borildi.

Bunda mahalladagi yettilik faollari, ta'lim muassasalari vakillari bilan yaqindan hamkorlik qilindi.

Tumandagi bir qator maktablarda «Qalqon» yoshlar guruhlarini tashkil etilgan. Ular yordamida yoshlar bilan targ'ibot tadbirlari, psixologik trening mashg'ulotlari o'tkazib kelinyapti. Bu sa'y-harakatlar voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishga yordam bermoqda.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

★ Odam savdosi — olam muammosi

FARZANDI XALAQIT QILAYOTGAN EDI...

Malika (voqea ishtirokchilarining ismlari o'zgartirildi) 20 yoshida buxorolik yigitga turmushga chiqdi. Uch farzandli bo'lgach, turli kelishmovchiliklar sababli turmushidan ajralib, bir bolasi bilan Karmana tumaniga — ota uyiga qaytib keldi. Vaqti-soati yetib, ota-onasi qazo qilgach, shu mahallalik yoshi kattaroq Baxtiyor ismli kishiga turmushga chiqdi.

Bunga o'zi sababmi yoki peshonada bitgani bo'ladi deb to'g'ri aytishadimi, xullas, bu safar ham turmushi o'xshamadi. Axiyri qornidagi homilasi bilan ko'chada qoldi. Avvaliga goh u yerda, goh bu yerda ijarada yashab yurdi. Oy-kuni yetib, bolasi tug'ildi. Shundan so'ng bir necha bor aka-ukasi oldiga kelib, «Uyimizga qayting, birga yashaymiz», deyishdi. Lekin Malika jigarlarining taklifini rad etdi.

Endi yangi tug'ilgan farzandi uning erkin yashashiga xalaqit qila boshlagan edi. U chaqaloqdan qutulish, shu bahona mo'maygina pullik bo'lib olish payida reja tuza boshladi. Tez orada avvaliga mahalla-ko'y orasida, keyin esa tug'uruqxona xodimlari o'rtasida «Malika bolasini sotar emish» degan gap-so'zlar tarqaldi. Tirnoqqa zor bo'lib yurganlar bu gapni eshitib, Malikani izlashga tushdi. U kelgan xaridorlar



bilan savdolashib, bolasini 1800 AQSH dollaridan kamiga bermasligini aytardi.

Malikaning jirkanch rejasidan viloyat IIB TQX JQB odam savdosiga qarshi kurashish bo'linmasi xodimlari

ham xabar topdi. Bu orada Dilduza ismli ayol bilan savdosi pishib, joriy yilning 28-oktabr kuni u bilan mahalla hududidagi masjid yonida uchrashishga kelishib olgan edi. Shu kuni tezkor xodimlar

hali chillasi ham chiqmagan go'dakni 1800 AQSH dollariga pullayotgan Malikani qo'lga olishdi.

— Bizning vazifamiz odam savdosi bilan shug'ullanayotganlarni qonun

hukmiga topshirishgina emas, shuningdek, bunday jinoyatchilikning oldini olish hamdir. Afsuski, jamiyatda bolasini pullashga urinayotganlar, xotin-qizlarni fahsh maqsadlarda, erkaklarni xorijda ish topib beraman deb, aldov yo'li bilan qul sifatida sotayotganlar uchrab turibdi. Hamyurtlarimizni bunday kimsalardan himoyalash maqsadida bevosita aholi bilan uchrashib, qolaversa, OAV orqali chiqishlar qilib, targ'ibot ishlari olib boraymiz, — deydi viloyat IIB TQX JQB odam savdosiga qarshi kurashish bo'linmasi katta tezkor vakili, leytenant Hanifa Xoliqova.

Soha xodimlari tomonidan o'tkazilgan tezkor tadbirlar, ta'lim muassasalarida yoshlar o'rtasida, perinatal markazlarda tibbiyot xodimlari hamda mahallalarda ishsiz fuqarolar orasida olib borilgan tushuntirish ishlari samarasi o'laroq, joriy yilda odam savdosi bilan bog'liq 9 ta holatga chek qo'yildi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



МИННАТДОРЛИК

САЙЁХНИНГ ҲАЁТИ САҚЛАБ ҚОЛИНДИ

Шу йил 25 октябрь куни соат тахминан 11:40ларда Хива шаҳридаги «Ориент Стар» меҳмонхонаси хизматчиси «Ичан қалъа» давлат музей-қўриқхонасида хизмат вазифасини ўтаётган вилоят ИИБ ХТТБ ходимларига мурожаат қилиб, Буюк Британиядан келган сайёх Николас Аткинсон Стюартнинг соғлиғи ёмонлашганини билдиради. Бошқарма ЖХБ ХПГ катта инспектори, лейтенант Руслан Ёқубов зудлик билан меҳмонхонага етиб келиб, тиббиёт ходимлари келгунига қадар сайёхга биринчи тиббий ёрдам кўрсатади. Сўнгра бемор реанимобилда махсус хизмат машинаси кузатувида вилоят шошилинич тез-тиббий ёрдам марказига олиб борилади. Шифокорлар томонидан беморга миёга қон қуйилиши ташхиси қўйилиб, жарроҳлик амалиёти ўтказилади.

– Ички ишлар ҳамда тиббиёт ходимларининг тезкор саъй-ҳаракатлари туфайли хорижлик сайёх ўз вақтида тиббиёт марказимизга олиб келинди, – дейди

шифокор-нейрохирург Ҳамид Бекжонов. – Натижада мураккаб жарроҳлик амалиёти ўз вақтида муваффақиятли амалга оширилди. Беморнинг ҳаёти сақлаб қолинди.

Вилоят ИИБ ХТТБ ходимлари томонидан олиб борилган ўрганишлар натижа-сида Николас Аткинсон ёлғиз саёҳатга келгани маълум бўлди. Шундан сўнг Ташқи ишлар вазирлигининг Хоразм вилояти Консуллик бўлими билан ҳамкорликда унинг яқин қариндошларига ҳолат ҳақида хабар берилди. Вилоятга етиб келган беморнинг фарзандлари отасига кўрсатилган беғараз ёрдам учун ички ишлар ҳамда тиббиёт ходимларига, меҳрибон ўзбек халқига самимий миннатдорлик билдирдилар.

Бемор Николас Аткинсон Стюарт 14 ноябрь куни фарзандлари ҳамроҳлигида махсус авиарейс билан ватанига кузатиб қўйилди.

Марат ХУДОЙБЕРГАНОВ,
подполковник.

Хоразм вилояти.



Турмуш чорраҳаларида

ҲАР КИМ
НИЯТИГА ЯРАША

Зумрад опанинг эри ичишни бошласа борми, думалаб қолма-гунча кўнгли жойига тушмасди. Бундан бояқиш мулзам бўлса-да, дардини ичига ютарди. Тўрт ўғилни оёққа турғизгунча ичи тўкилган девордек нураб бор-са-да, бировга дардини дастур-хон қилмади.



Ичкиликбозликка муккасидан кетган одам ҳамма нарсадан мосуво бўларкан: на бир орият қоларкан, на уят. Агар Турғуншер аканинг қулоғига гап кирганида ота-онаси, акаларининг айтганини қиларди. Жилла курси, аёлининг уззукун тўккан кўз ёшларига раҳми келарди. Аксинча, «Менга ҳаётнинг қизиғи йўқ, барибир узоқ яшайман», деб қўярди баъзида бу ҳақда гап кетса кўзлари қонга тўлиб...

Зумрад опа бор умидини фарзандларининг келажаги билан боғлади. Тортган азобларим эвазига болаларим эсли-хушли, бахтли бўлсин, дея дуо қилди. Кўз очиб кўргани турмуш ўртоғини ҳам ўз

ҳолига ташлаб қўймади, сўзини икки қилмади.

Бугун бу оилада ҳаёт манзараси умуман бошқача. Сабру бардош мукофоти, чин дилдан қилинган ният ижобати Зумрад опа ва унинг фарзандларига шундай бахт ато этдики, оиланинг ўтмишидан бохабар инсонлар ҳозир ҳайратдан ёқа ушлайди. Фарзандларга ота сабоқ бўлди. Онанинг унсиз изтироблари уларни хулоса қилишга, ота хатосини такрорламасликка ўргатди. Деҳқончилик қилиб, бировларнинг юмушини бажариб бўлса-да, топилган пуллар фарзандларнинг ўқиши учун сарфланди. Бугун икки ўғил тадбиркор. Икки ўғил

нуфузли хориж олий ўқув юртларида таҳсил олмоқда. Икки келин, тўрт набира Зумрад опани авайлаб асрайди. Бундай эъзоздан хурсанд бўлиб, гоҳида кўз ёшини ҳам яширолмайди...

Инсон нима деб ният қилса, шунга яраша насибасини олиши рост экан. Ичкилик Турғуншер аканинг жигарини еб тугатган экан, 60 га ҳам бормай вафот этди.

Зумрад опа оила жамулжам бўлганида доим яхши ният ва эзгу амал қилиш кераклигини айтишдан чарчамайди...

Гулчеҳра БУВАМИРЗАЕВА,
ўз мухбиримиз.

Наманган вилояти.

Жиноят муҳокамаси

СЎНГГИ
ПУШАЙМОН...

Жиноятга жазо муқаррар. Уни юзага келтирган шарт-шароитлар, омиллар кенг жамоатчилик ўртасида муҳокама қилиниши эса келгусида бу каби салбий ҳолатларнинг олдини олишда профилактика вазифасини ўтайди.

Яқинда Қарши туманида шаръий никоҳ асосидаги эр-хотин ўртасида содир бўлган маиший зўравонлик ҳолати юзасидан жиноят муҳока-

маҳалласи ҳудудидан ўтган йўлдан кетишаётган пайтда фарзандининг таъминоти борасида тортишиб қолади. Жаҳлига эрк бериб, хотинининг бурнига, елка, биқин ва бел соҳаларига бир неча маротаба мушт уриб, тан жароҳати етказди. Сўнг аёлни машинадан тушириб, ўз йўлига равона бўлади. Аёл эса «102» қисқа рақамига қўнғироқ қилади...

Йиғилишда ушбу ҳолат атрофли-



маси ўтказилди. Унда ЖИБ Қарши туман суди, прокуратура, ички ишлар бўлими ходимлари, кенг жамоатчилик вакиллари қатнашди.

Қарши туманида яшовчи Ю.З.га нисбатан муқаддам суд томонидан 2 йил муддатга ахлоқ тузатиш ишлари жазоси тайинланган. Аммо у бундан тегишли хулоса чиқармасдан, оилавий зўравонлик жиноятини содир этди.

Шаръий хотини Р.Д.ни кўчада кўриб қолиб, бошқарувидаги машинага миндириб олади ва Қарши шаҳрига бориш учун «Гулистон»

ча муҳокама қилинди. Келиб чиқишига сабаб бўлган омиллар таҳлил қилиниб, келгусида йўл қўймаслик юзасидан таклифлар, фикр-мулоҳазалар билдирилди.

Муҳокамада сўз олган Р.Д. айбланувчи эрига нисбатан даъвоси йўқлигини ва енгиллик берилишини сўради. Аммо қонун устувор, жазо муқаррар. Пушаймондан эса фойда йўқ.

Сардор ОЧИЛОВ,
Қарши тумани ИИБ ҳузуридаги
тергов бўлини маси бошлиғи,
майор.

Қашқадарё вилояти.



EZGU ISHLARDAN KO'ZLANGAN MAQSAD

AHOLI ROZILIGIGA ERISHISH

Qishning sovuq va sinovli kunlari yaqin. Shu boisdan mavsumga tayyorgarlik ko'rish va joylardagi mavjud muammolarni hal etish zarur. Ayniqsa, bu borada sektor miqyosida amalga oshirilayotgan ishlar e'tiborga loyiqdir.

Yaqinda eng chekka hududlardan biri bo'lgan Bo'zatov tumanidagi 3-sektorga qarashli «Ko'ksuv» ovul fuqarolar yig'ini-da tashkil etilgan o'rganish ishlari ham mavsumga tayyorgarlik doirasida o'tkazildi. Ta'kidlash joizki, 3970 nafar aholi istiqomat qilib kelayotgan ushbu ovul fuqarolar yig'ini tuman markazidan 50 chaqirim uzoqlikda joylashgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vaziri, polkovnik B.Torebekov rahbarligida olib borilgan o'rganishlar davomida ko'plab muammolar aniqlanib, ularni hal etish choralari ko'rildi. Xususan, hududdagi 21 xonadon egalari uylaridagi isitish uskunolari nosoz ekanligi to'g'risida murojaat etgandi. Ushbu xonadonlarga isitish uskunolari olib borib berilgan bo'lsa, hududdagi kam ta'minlangan oilalarning 51 nafar farzandi qishki kiyimlar bilan ta'minlandi. Shuningdek, 10 ta xonadonga turli xildagi oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berildi.

– Yoshlar orasida sportning voleybol turini keng ommalashtirish maqsadida hududda joylashgan maktabga voleybol setkasi va to'plar sovg'a qilindi, – deydi tuman IIB boshlig'i, polkovnik Umida Kurbanbayeva. – O'rganishlar davomida nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy masalalar hal etildi, balki ko'plab fuqarolar tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, har tomonlama yordam ko'rsatildi. Vazirlik Tibbiyot bo'limi tomonidan sayyor ko'rik tashkil etilib, 635 nafar fuqaro bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. 63 nafar fuqaroga statsionar sharoitda davolanish uchun yo'llanmalar berilib, ayrimlari zarur dori-darmonlar bilan ta'minlandi. Shuningdek, shifokorlar uyida yotgan keksalarning xonadoniga borgan holda ularni ko'rikdan o'tkazib, zarur yordamlarni ko'rsatishdi. Shu bilan birga, ovul fuqarolar yig'inidagi 16 yoshga to'lgan ko'plab yoshlarga ID-kartalarni rasmiylashtirish bo'yicha amaliy ishlar qilindi.

Joriy yil boshida sektor hududida amalga oshirilishi lozim bo'lgan bir qator ishlar belgilab olingandi. O'tgan vaqt mobaynida sektor ishchi



guruhi tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj oilalar xatlovdan o'tkazilib, ular «Temir daftar», «Ayollar daftari» va «Yoshlar daftari»ga ro'yxatga olindi. Shu kunga qadar «Temir daftar»ga kiritilgan fuqarolarga 118 mln so'mdan ortiq turli yo'nalishdagi yordamlar berildi. Natijada ulardan 87 tasi ushbu ro'yxatdan chiqarildi.

«Ayollar daftari»ga kiritilgan xotin-qizlardan 83 nafarining yashash sharoitini yaxshilash, nogironligi bo'lgan farzandlari bor ayollarga ijtimoiy masalalarini hal etish, shuningdek tomorqadan foydalanish yo'nalishlarida ko'maklashildi. Shu bilan birga, talablardan kelib chiqqan holda, hududdagi 11 nafar xotin-qizga o'zini o'zi band qilishi uchun tikuv mashinalari olib berildi.

– «Yoshlar daftari» bo'yicha 10 nafar yoshga shartnoma pullarini to'lashda, 3 nafariga ta'lim, sport va madaniyat yo'nalishidagi xarajatlarini qoplashda, 10 nafariga subsidiya hisobidan asbob-uskunalar olishda, 4 nafariga davolanish

uchun, 1 nafariga esa harbiy xizmat uchun to'lov pullari berilishida amaliy yordam berildi, – deydi tuman IIB JXX HPB ijtimoiy profilaktika guruhi katta inspektori, mayor Muratbay Seytkamalov.

Joriy yilda sektor hududida xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan umumiy bahosi 1 mlrd 420 mln so'mlik loyiha ishga tushirilib, ko'plab fuqarolar doimiy ish o'rniga ega bo'ldi. Hududdagi 4,5 km ichki yo'llar ta'mirdan chiqarilib, aholini chuchuk suv bilan ta'minlash bo'yicha 2,2 km suv tarmog'i tortilmoqda.

Xullas, amalga oshirilayotgan bu kabi ezgu ishlardan ko'zlangan maqsad – eng chekka hududlarda yashaydigan aholining yashash sharoitini yaxshilash barobarida ularning hayotdan rozi bo'lib yashashini ta'minlashdan iboratdir.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.





Salomatlik saboqlari

MENINGIT – YUQUMLI KASALLIK



Kunlar sovib, havo haroratining sezilarli darajada pasayishi aholi orasida turli yuqumli kasalliklarning avj olishiga zamin yaratadi. Ulardan biri meningitdir.

Xo'sh, u qanday kasallik, kelib chiqish sabablari nimalardan iborat?

Meningit – o'ta yuqumli kasallik bo'lib, bosh va orqa miyaning yallig'lanishi hamda umumiy intoksikatsiya belgilari bilan kechadi. Bunda yuqori tana harorati, miya shishishi, bosh chanog'i ichida bosim ko'tarilishi kuzatilib, orqa miya suyuqligining likvori o'zgaradi. Aksariyat hollarda kasallikning kelib chiqishiga virus, ba'zida bakteriya, zamburug'lar yoki oddiy mikroorganizmlar ham sababchi bo'ladi. Hatto bakteriya va virus birgalikda ham kasallikni keltirib chiqarishi mumkin.

Meningit juda tez avj oladi. Agar bemorning tana

Kasallik asosan havo haroratining o'zgarishi, ovqat ratsionidagi cheklashlar va vitamin yetishmasligi sababli kelib chiqadi. Qolaversa, immunitet pastligi, pnevmoniya, faringit, gripp, tuberkuloz, sifilis, OITS, jigar sirrozi, kuchli stress, nevroz, bosh miya chayqalishi, sovqotish, antibiotiklarni pala-partish qabul qilish hamda kuchli parhez kabilar ham meningitni keltirib chaqirishi mumkin.

Xastalik qo'zg'atuvchisi odamdan odamga yuqqani bois ushbu infeksiyaga faqat insonlar chalinadi. Uning manbai infeksiyani tashuv-

chilar hisoblanadi. Bu xastalik yil davomida kuzatilishi mumkin, ammo uni ko'proq mavsumiy, ya'ni, kuz-qish va bahor oylarida ko'p uchraydigan kasallik, desak, to'g'ri bo'ladi.

Bu virus tashqi muhitga chidamsiz bo'lib, odam organizmidan tashqarida 30 daqiqadan so'ng nobud bo'ladi. Mikroob burun, halqum, orqa miya suyuqligi, qon va terida ko'payadi. Shu bois unga chalingan bemor infeksiya manbai hisoblanadi. Meningit istalgan yoshda uchrashi mumkin.

Kasallikka chalingan insonning tana harorati 40 darajagacha ko'tariladi. Bemor bosh og'rish, bosh aylanishi, tomoq achishishi, yutinishdagi og'riq, burun bitishi, ko'ngil aynishi,



qusish, eshitish qobiliyatining buzilishi kabilardan shikoyat qiladi. Qolaversa, holsizlik, halqum orqa devorining shishi, qaltirash va tomir tortishishi, tirishish kuzatiladi.

Og'ir hollarda hushni yo'qotish, bolalarda talvasalar, kam hollarda esagallyutsinatsiya yuzaga kelishi mumkin. Barcha klinik belgilar bir-ikki kun ichida kuchayib boradi. Birinchi kun oxiri, ikkinchi kun boshlarida terida toshmalar tosha boshlaydi. Ular bir vaqtning o'zida terining barcha yuzalarida, ayniqsa, oyoqlarda paydo bo'ladi. Ba'zida barmoq-

larning uchi, tovon, quloq supralarida ham rivojlanishi mumkin. Bunday paytda zudlik bilan shifokorga murojaat qilish kerak. Sababi, ushbu holatda xastalikka chalingan inson uy sharoitida emas, balki yuqumli kasalliklar shifoxonasida tibbiyot xodimlari nazorati ostida davolanishi lozim. Qolaversa, bemor xonadoni dezinfeksiya qilinishi va uning yaqinlari mutaxassis kuzatuvda bo'lishi maqsadga muvofiq.

Hakimjon UZOQOV,
IIV Markaziy poliklinikasi
bo'linma boshlig'i,
mayor.

НАРОДНЫЕ СРЕДСТВА В БОРЬБЕ С ПРОСТУДОЙ

Молочный напиток с инжиром



Ингредиенты: 300 мл молока, ягоды сушеного инжира – 4 шт., мед – 1 ст. л.

Способ приготовления: нарезанный на дольки инжир положить в молоко и довести до кипения, затем накрыть крышкой и уваривать, сохраняя минимальный огонь. Это нужно для того, чтобы лишняя жидкость из молока выпарилась. Добавьте мед и перемешайте. Готовый отвар перелейте в термос, где инжир продолжит распариваться. Напиток пить 2-3 раза в день по 1-2 ст. л.

Ромашковый чай с лимоном и медом

Ингредиенты: 0,5 лимона, 2 ст. л. меда, 100 гр. ромашки сушеной на 1 литр кипятка.

Данный напиток с утра заваривают в термосе. Пьют такой чай в течение всего дня за полчаса до и после еды. Чай активизирует скрытые резервы организма.

Чай с имбирем

Ингредиенты: лимон по вкусу, 2 ст. л. меда, литр воды, имбирь по вкусу.

Способ приготовления: свежий имбирь (примерно 10 см) очистить и нарезать тонкими дольками. Положить в кастрюлю, добавить воду, варить 20 минут. Добавить мед, перелить в чайник через сито, украсив кусочком лимона.



Чеснок с солью, сливочным маслом и черным хлебом

Ингредиенты: чеснок – 4 зубчика, крупная соль по вкусу, свежемолотый черный перец, сливочное масло – 4 ст. л., хлеб.

Способ приготовления: разогрейте духовку до 180 градусов, срежьте у головок чеснока макушки, чтобы слегка стали видны зубчики, заверните каждую в фольгу и переложите на противень. Отправьте в духовку на час, пока мякоть не станет мягкой. Оставьте остывать в фольге. В небольшую миску выдавите мякоть из зубчиков. К чесноку добавьте размягченное сливочное масло, немного соли и перца. Разрежьте хлеб вдоль и смажьте внутренние стороны получившейся пастой. Сложите вместе, переложите на противень и отправьте в духовку до появления румяного цвета.

Куриный бульон (острый)

Ингредиенты: одна целая курица, один репчатый лук, 200 г. свежего имбиря, 2 зубчика чеснока, перец черный горошком 1 ч. ложка, соль по вкусу, вода.

Способ приготовления: Разделайте курицу, крупно нарежьте лук, имбирь. Чеснок раздавите плоской стороной ножа, удалите шелуху. Сложите подготовленные ингредиенты в большую кастрюлю, добавьте перец и соль. Залейте водой и доведите до кипения. Снимите пену с поверхности, накройте крышкой и варите на слабом огне около 30 минут, до готовности куриной грудки. Достаньте грудку из кастрюли и продолжайте варить бульон без крышки около 2 часов. Уберите оставшуюся курицу и процедите бульон. Попробуйте его, досолите при необходимости. При подаче добавьте к супу зелень кинзы.

Согревающие специи



Черный перец поддерживает кровеносную, пищеварительную и дыхательную системы. Например, черный перец способствует усвоению питательных веществ и выздоровлению, одновременно поддерживая легкие.

Кардамон поддерживает здоровое пищеварение, способствует свежему дыханию, помогает успокоить дыхательные пути.

Корица используется для улучшения аппетита и согрева тела.

Гвоздика поддерживает здоровое пищеварение, аппетит, иммунную систему, а также чистоту и функцию легких.

Черный тмин способствует укреплению иммунитета и облегчает отхаркивание.

Перед применением проконсультируйтесь с врачом.





Месячник физической и боевой подготовки



АРЕНА ДЛЯ ТЕХ, КТО ДРУЖИТ СО СПОРТОМ

Добротную спортивную базу обрел отдел внутренних дел Дустликского района Джизакской области. Символично, что универсальный спортивный зал введен в строй в месячник физической и боевой подготовки личного состава.

На церемонии открытия объекта присутствовали представители хокимията, правоохранительных органов и общественности. Выступившие рассказали о реформировании органов внутренних дел, укреплении материально-технической базы, социальной защите сотрудников, создаваемых для повышения профессионализма условиях.

Затем участники ознакомились с новым объектом, передаваемым в распоряжение РОВД. Просторный и светлый зал, оснащенный необходимым инвентарем, приспособлен для игры в волейбол. Те, кто предпочитает спортивные единоборства, смогут заниматься здесь на трех десятках матах. Боксерские перчатки и шлемы позволят проводить спарринги. Тренажерный зал с беговыми дорожками, велотренажерами, ком-

плектами снарядов для тяжелой атлетики станет хорошим подспорьем для поддержания необходимой физической формы.

– Новый спортзал расширяет наши возможности в физической и боевой подготовке личного состава, проведении разных соревнований, – говорит заместитель начальника районного отдела внутренних дел по духовно-просветительской работе подполковник Жасур Тилабов. – Уже со-

здали волейбольный клуб. Он открыт для местной молодежи. Первое соревнование среди юношей и девушек из махаллей третьего сектора приурочили ко дню открытия спортивного зала.

В ходе церемонии состоялось награждение группы строителей, возводивших объект, и сотрудников органов внутренних дел, добившихся высоких показателей в работе.

Соб. корр.

Джизакская область.



MUNAJJIMLAR BASHORATI

(27-noyabr – 3-dekabr)



Qo'y. Bu hafta rejadagi barcha yumushlarni o'z vaqtida bajarishga urining. Biroq ishga kirishishdan oldin uning nechog'lik ahamiyatli ekanini jiddiy o'ylab ko'ring. Haftaning ikkinchi yarmi ish faoliyati bilan bog'liq kelishuvlarni amalga oshirish uchun maqbul vaqt.



Buzoq. Do'stlar va yaqin insonlarning talablariga quloq tutib, chetdan bildirilgan tanbehlariga amal qilsangiz, omad va muvaffaqiyat siz tarafda bo'lishi tayin. Boshi berk ko'chaga kirib qolmaslik uchun shoshmashosharlikka yo'l qo'ymang, hafta davomida mojarolar, kelishmovchiliklar va bahs boylashlardan yiroq turing.



Egizaklar. Ortiqcha ta'sirchanlik oiladagi munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bor kuch-shijoatingizni tortishuvlar emas, ish va sportga sarflang. Bundan tashqari, suv havzalari va tik quyosh nuri tushuvchi joylarda ehtiyotkor bo'lishni unutmay, salomatlikka jiddiy e'tibor qaring.



Qisqichbaqa. O'z ustida ishlash, tajriba orttirish uchun qulay davr. Ijod, yaratish va barpo qilishga qaratilgan sa'y-harakatlar bu haftada ijobiy natija beradi. Kasbiy sohada takomillashishni istasangiz tashabbuskor insonlar bilan muloqot qilish hamda rivojlanishga to'sqinlik qilayotganlar bilan munosabatni uzish tavsiya etiladi.



Arslon. Ushbu kunlarda amalga oshirilgan tavakkalchilik ko'pincha omad keltiradi. Faqat shoshmashosharlikka yo'l qo'ymang. Bu hafta mojarolar, kelishmovchiliklar va bahs boylashlardan yiroq turing. Dam olish kunlari oila a'zolaringiz bilan tabiat havosida sayr qiling.



Parizod. Mazkur hafta siz tanlagan yo'l to'g'ri va samarador ekanini ko'rsatadi. Ko'tarinki kayfiyat atrofdagilar va yaqinlaringiz bilan munosabatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'z mablag'laringizni natijali loyihalarga sarflang. Fikr-o'ylaringizga quloq tutib harakat qiling, ular chinakam yo'naltiruvchi kuch hisoblanadi. Lekin chetdan aytilgan foydali maslahatlarni ham bee'tibor qoldirmang.



Tarozi. Xizmat sohasi – kuch-quvvat, ijodiy otash va daromad manbayi. Shug'ullanayotgan ishingizga ijodiy yondashish va natija bir zumda o'zini namoyon etadi. Oilaviy hayotda muammolar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababdan imkon qadar og'irroq bo'lib, jahl bilan ish tutmang. Vaziyatni o'z nazoratingizga oling, shunda munosabatlar qisqa muddatda o'z yo'lga tushib ketadi.



Chayon. Hal etib bo'lmaydigan va chigal masalalar hech bir qiyinchiliksiz o'z yechimini topadi. Hafta o'rtasida hamma ishlar silliq baroridan kela boshlaydi. Dam olish kunlari rejalashtirilmagan xarajatlar bo'lishi mumkin.



O'qotar. Bu haftada oila va ish o'rtasida tanlov yuzaga kelgudek bo'lsa, oilaviy majburiyatlarga ko'proq ahamiyat qaring. Qadrdon xonadon – kuch-qudrat manbayi. Yaqinlaringiz xizmatdagi muammolarni hal etishga yordam beradi. Ular siz uchun nafaqat uyda, balki kasbiy faoliyatda ham tayanch bo'la oladi.



Tog' echkisi. Bu vaqtda moliyaviy masalalarda tejamkor bo'lib, kutilmagan xaridlardan o'zingizni tiyishga harakat qiling. Chorshanbani yangi ishlarini rejalashtirish uchun sarflang. Do'stlaringizdan yordam so'rashdan uyalmang. Bo'sh vaqtningizni sevimli va qadri insonlar hamda uy ishlariga bag'ishlang.



Qovg'a. Ish faoliyati davomida o'z nuqtayi nazariningizni himoya qilishdan cho'chimang. Hafta davomida barcha ishlarni to'g'ri taqsimlang. Aks holda hech birini oxiriga yetkaza olmay qolishingiz mumkin. Atrofdagilar bilan arizas narsalar sababli tortishmaslikka harakat qiling. Dam olish kunlari do'stlar bilan uchrashing.



Baliq. Ish joyingizda muvaffaqiyatlar va oilada yoqimli tashvishlar kutmoqda. Chorshanba yangi imkoniyatlar va muvaffaqiyatlar tuhfa etadi. Haftaning ikkinchi yarmida salomatligingizga jiddiy e'tibor qaring. Yakshanba kuni hech qanday ishni rejalashtirmay, maroqli hordiq oling.



Ona tilimiz – milliy ma'naviyatimizning bitmas-tuganmas bulog'idir. Shunday ekan, unga munosib hurmat va ehtirom ko'rsatish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas insoniy burchimizdir.

Shavkat MIRZIYOYEV

Bir qo'shiq tarixi

«MUTRIBO, BIR ILTIMOSIM...»

El suygan hofiz, O'zbekiston xalq artisti Sherali Jo'rayev ijrosidagi «O'zbekona so'ylagil» qo'shiq'ini ko'pchilik biladi. Uning yaratilish tarixi ham o'ziga xos bo'lgan ekan. Bu haqda buyuk san'at darg'asining o'g'li Shohjahon Jo'rayev quyidagicha hikoya qiladi:

«Otam bilan o'tirgandik. Televizorda bir yosh ayol xonanda qo'shiq ayta boshladi. Otam so'radilar: «Bu rusmi yo o'zbek? Nima-ga o'zbek bo'la turib, o'zbekmasdek qo'shiq aytyapti? Nimaga uning so'z ohanglari boshqacha? Bir-biriga telba-teskari?» Otam shunday deya ichkari xonaga kirib ketdilar...

Bir muddat vaqt o'tgach, o'zlarining alohida daftariga «Mutribo, bir iltimosim, o'zbekona kuylagil» deb boshlanuvchi olti bandli she'r yozib chiqdilar. Bu she'rni qo'shiq qilaylik, ota, desam, «Hozir aytganimiz befoyda, havoga aytgan bo'lamiz, o'zining davri keladi, sabr qil», deya javob qildilar. Sababi ma'lum, o'sha vaqtlar otamiz uchun barcha eshiklar yopiq edi. Sabr qildik. Prezidentimizning sharofati bilan 2017-yili otamiz yana katta sahnaga qaytdilar. Bundan to'rt-besh yil avval ushbu she'rni o'ta mukammal bir qo'shiq qilib, o'zlari ijro etdilar».

O'zbek tili uch daryodan suv ichgan

Ma'nodosh so'zlarimizning ko'pligiga sabab bor. O'zbek tili uch daryodan suv ichgan. Diniy, ilmiy, ijtimoiy atamalarimiz asosan arab tilidan; ko'pgina ish qurollarimiz: jomadon, hokandoz, dastshu, jomashu, dazmol, qog'oz kabi hunarmandlikka oid so'zlarimiz, shuningdek, yuksak she'riy uslubga xos suxanlar fors tilidan kelgan. Lekin bu qat'iy qoida emas. Aksar holat desak, to'g'riroq bo'ladi. Arab tilidan o'tgan narsa va buyum nomlari ham tilimizda ko'p: aroba, musallas, istehkom, qalam singari. Shuningdek, fors tilidan kirgan falsafiy atamalar ham talaygina. Javonmard, sarbador, charxi kajraftor, oinayi Iskandar va hokazo. Harakat nomlari asosan turkiycha. Ko'pgina so'zlarning o'zbekchasi ham, arabchasi ham, forschasi ham tilimizda barobar ishlatiladi. Arabcha Alloh yonida forsha Xudo, turkiy Tangri so'zlarimiz bor. Yurak ham, qalb ham, dil ham deymiz. Arabcha ism, forsha nom, o'zbekcha ot – uchovi ham o'zimizniki. Til, zabon, lison bizda shu sababdan beqiyos boy va rangin.

Erkin VOHIDOV.

(«So'z latofati» kitobidan.)



O'ZBEKONA SO'YLAGIL

Mutribo, bir iltimosim: o'zbekona kuylagil, Dilda dardni to'kmaq o'lsang o'zbekona so'ylagil. Dilga botmas kuyni boshlab qalbimni muzlatmagil, O'zbekona ko'hna ruhim o'zgaga o'xshatmagil, Garchi yayrab o'ynasang-da, o'zbekona o'ynagil!

Sen tug'ilgan bir diyor bor misli jannat bog'lari, O'ynab o'sgan ko'chalarning zar erur tuproqlari, O'tmishingni eslatar ko'hna shahar, qishloqlari, Es-la, kimsan deb shivirlar tog'-u dasht, yaproqlari, Es-lasang-da, ey birodar, o'zbekona eslagil!

O'tmishingni eslab, qalbsiz kimsalarga cho'kka-lab, Na arabmas, na farangmas har maqomga yo'rg'alab, Voh, ochilmas ko'zlaringni ochgil endi tirmalab, O'yla bir zum, ey birodar, orqa-oldingga qarab, O'ylasang-da, ey birodar, o'zbekona o'ylagil!

Sen unutgan urf-u odat, san'ating-chun yig'lagil, O'z tiling, dining, imoning, sunnating-chun yig'lagil, Barcha bid'atdan yiroq bo'l, yig'lama qorning uchun. Bo'zla el deb, yon Vatan deb, millating-chun yig'lagil, Yig'lasang-da, bo'zlasang-da, o'zbekona bo'zlagil!

Bilki, o'zbek tilin buzsang, muzga aylangay diling, Buzsang o'zbek odatini, kim bo'lar o'g'ling, qizing? Qarg'ish urgay elni buzsang, qop-qora bo'lgay yuzing. Bork-u Sohib(i)qironing ham Navoiydek tiling, Qancha burro sayrasang-da, o'zbekona sayragil!

Tingla, sherlar na'rasiga tog'lar bergay sado, Shul Vatanning mardlariga jonlar bo'lsin fido, Hamda o'zbek nozaninin nozi dardimga davo, Tingla sen ham, ey birodar, kuylarim bo'lmas ado, O'ylasang-da, tinglasang-da, o'zbekona tinglagil!

Sherali JO'RAYEV.



Erkin SATTOROV tayyorladi.

Postda
Ha no'qiy

MUASSIS:

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI**

Bosh muharrir –

polkovnik

Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

mayor Azizjon FAYZIYEV

kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotib –

Erkin SATTOROV

Navbatchilar –

kapitan Mixli SAFAROV

Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV

Ilhom JUMANOV

Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV

Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

**Obuna masalalari
bo'yicha:**

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



**Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.**

Bank kodi 00014.

**O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vazirligi g'aznachiligi.**

Shaxsiy h/v

470010860262877031101179001

STIR 200637499.

**Tahririyatga kelgan qo'l-
yozma va suratlar egasiga
qaytarilmaydi.**

**Nashrimizdan ko'chirib bosil-
ganda manba ko'rsatilishi shart.**

**Gazeta tahririyat kompyuter
markazida terildi va sahifalandi.**

«Kolorpak» MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: 100206

Yunusobod tumani,

Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.

**Gazeta O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda
0120-raqam bilan ro'yxatga
olingan.**

Buyurtma №V-3516.

Bosilish – ofset usulida.

**Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma
taboq. 50466 nusxada chop etildi.**

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.

Tashkilotlar uchun – 366.

Bosishga topshirish vaqti – 22.00.

Bosishga topshirildi – 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

**100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.**



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz